


339
Рис.
T. Rixsiboyev

T. Rixsiboyev

KOMPYUTER GRAFIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

T. RIXSIBOYEV

KOMPYUTER GRAFIKASI

Oliy va o'rtta maxsus ta'limgazalar vazirligi tomonidan pedagogik
ta'lim yo'nalishi hamda kasb-hunar kollejlari talabalari
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti
TOSHKENT-2006

T. RIXSIBOYEV KOMPYUTER GRAFIKASI O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi nashriyoti , T.; 2006, 168 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma barcha Oliy o'quv yurtlarida bakalavr muhandislar tayyorlash uchun Oliy va o'rta maktab muammolari instituti tomonidan 2-fevral 2004 yilda tasdiqlangan namunaviy dastur asosida o'n sakkizta amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari ko'rinishida tuzilgan. Har bir mashg'ulotning mavzusi va rejasi, adabiyotlar, tayanch iboralar va takrorlash uchun savollar keltirilgan.

Talabalar mashg'ulotlarda olgan bilimlari va ko'nikmalarini bu fandan to'rtta laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida mustahkamlaydilar hamda nazariy bilimlarini va amaliy malakalarini oshiradilar. Ushbu o'quv qo'llanmada har bir laboratoriya ishi va 1,2-joriy nazoratlar uchun vazifa variantlari oddiy, o'rta murakkablikda va murakkab belgilangan.

Shuningdek ushbu o'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarida, akademik litseylarda, kasb hunar kollejlarida va maxsus loyihalash korxonalarida grafik axborotlarni ikki o'lchamli modellashtirish asosida kompyuterda bajarishni o'rganishda foydalanishlari mumkin.

Muallif ushbu qo'llanmani yaratishda beg'araz yordam ko'rsatgan barcha insonlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Taqrizchilar: **M.J. Jumayev**

Toshkent avtomobil yo'llar instituti dotsenti

M. Mirzayev

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti

Muharrir:

H. Xalilova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

KIRISH

XXI-asr, yangi texnika va texnologiyalarni kompyuterlar asosida ishlab chiqish va tashkil qilish asri hisoblanadi. Shuning uchun barcha sohalar kabi muhandislik loyihalashda ham kompyuterlardan foydalanish xozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib qoldi. Shu munosabat bilan ushbu o'quv qo'llanmaga "Kompyuter grafikasi" fanining bir bo'limi "Muhandislik kompyuter grafikasi- "Kompyuter loyihalash" alohida fan qilib kiritildi. Bunda ta'kidlab o'tish zarurki, "Kompyuter grafikasi" fani "Hisoblash kompyuter grafikasi" "Иллюстратив-ко'ргазмали компютер графики" va "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanlarini o'z tarkibiga oladi. "Hisoblash kompyuter grafikasi"dan foydalanib grafik reklamalar kabi axborotlarni amaliy dasturlar asosida bajariladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada "Kompyuter grafikasi" fanining bir bo'limi "Muhandislik kompyuter grafikasi yoki "Kompyuterda loyihalash" fani AutoCAD grafik dasturi asosida bayon qilinadi.

Autodesk kompaniyasining AutoCAD tizimi xozirgi davrda avtomatik loyihalashning xalqaro standarti hisoblanadi. AutoCAD dasturining yaratilganligiga 20 yildan oshgan bo'lsa-da, avtomatik loyihalash dasturlari orasida hanuzgacha mashhurligicha qolmoqda. Chunki AutoCAD dasturi mukammal va ommabop dastur bo'lib, u har qanday turdag'i sxema va chizmalarni yaratishni yuqori aniqlikda va sifatli bajaradi. Shuningdek, mazkur dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababli, millionlab mutahassislar, olimlar, muhandis-texniklar va talabalar loyihalash ishlarini avtomatlashtirish sohalarida AutoCAD tizimidan foydalanishlari odatiy holga aylanib bormoqda.

"Muhandislik kompyuter grafikasi"ni o'qitishdan asosiy maqsad talabalarga muhandislik va mutaxassislik fanlaridan bajariladigan barcha turdag'i grafik axborotlarni-chizma, diogramma va sxemalar kabi tasvirlarni ikki o'lchamda yoki uch o'lchamda kompyuter yordamida bajarish tartibi va qoidalarini o'rgatishdan iborat.

"Muhandislik kompyuter grafikasi"ning asosiy masalasi amaliy va operatsion dasturlar hamda tayyor buyruqlar paketidan foydalanib, loyihalash va texnologik jarayonlarning modeliarini yaratish ishlarini talabalar tomonidan kompyuterda erkin bajarishlari uchun zaruriy bo'lgan bilim va malakalarga o'rgatishdan iborat.

"Muhandislik kompyuter grafikasi" fanidan mashg'ulotlar Oliy o'quv

yurtlarida bakalavr va muhandislar tayyorlash uchun Oliy va o'rta maktab muammolari instituti tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari ko'rinishida o'tkaziladi.

Har bir amaliy mashg'ulotda 25-30 minut davomida grafik axborotlarning primitivlarini-tarkibiy qismlarini kompyuter ekranida chizish, ularni qayta o'zgartirib maqbul bo'lgan variantlarini yaratish va ekranda bajarilgan tasvirlarni qog'ozga chiqarib olish kabi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar bosqichma-bosqich berib boriladi. Mashg'ulotning qolgan qismida esa, chizma chizish, ularni tahrir qilish, o'lchamlar qo'yish va ob"ektlarni bog'lash kabi amaliy buyruqlardan foydalanib ko'nikmalar va malakalar oshiriladi.

Talabalar mashg'ulotlarda olgan bilimlari va ko'nikmalarini to'rtta laboratoriya ishlарini bajarish jarayonida mustaxkamlab, nazariy bilimlarini va amaliy malakalarini oshiradilar.

I-laboratoriya ishida "Tekis kontur chizmasi" A4 yoki A3 formatda asosiy yozuvni(burchak shtampi) bilan bajariladi.

II-laboratoriya ishida "Predmetning ikki ko'rinishi bo'yicha uchinchisini topish va qirqimini yasash" vazifalari bajariladi.

III-laboratoriya ishida "Yig'ma birlik tarkibiga kiruvchi detallarni ajratib, ularni ishchi chizmasini tuzish" vazifasi bajariladi.

IV-laboratoriya ishida III-laboratoriya ishi uchun berilgan "Yig'ma birlik" chizmasini bir qismini, ya'ni 3 yoki 4 ta detallardan iborat bo'lgan qismining yig'ish chizmasi bajariladi va spetsifikatsiyasi tuziladi.

Har bir laboratoriya ishlарidagi vazifani bajarish uchun talabaga uning guruh ro'yxatidagi tartib nomeriga mos bo'lgan shaxsiy vazifa mashg'ulot o'tkazuvchi o'qituvchi tomonidan beriladi (Illovaga qarang).

"Muhandislik kompyuter grafikasi" fanidan talabalar baholi yakuniy nazorat ishlari topshiradilar. Buning uchun birinchi (1,2-laboratoriya ishlari hajmida) va ikkinchi (3,4-laboratoriya ishlari hajmida) nazorat ishlарining natijalari ham e'tiborga olinadi.

Laboratoriya ishlari uchun yuqorida taklif etilgan vazifalar, texnik mutaxassislar va chizmachilik fani bo'yicha mutaxassis o'qituvchilar tayyorlaydigan pedagogik OO'Y lari talabalariga mo'ljallangan. Bu laboratoriya ishlарining shakli va mazmunini turli soha mutaxassisliklari uchun esa, ularda bajariladigan grafik tasvirlar asosida tanlash mumkin. Masalan, qurilish-arxitektura sohasida laboratoriya ishlарining vazifalari sifatida qurilish inshootlarining primitivlarini-tarkibiy qismini va ularning loyihalarini olish mumkin.

I-MASHG'ULOT


Mavzu: Grafik axborotlarni kompyuterda bajarish mumkinligi to'g'risida

Adabiyot:

1. WWW. Info-baz.narod.ru, I-bob "Общие сведения".
2. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: "Практический курс", Москва, "DESS SOM", 2002г., 63 – 80 стр.
3. Б. Барчард va boshqalar. "Внутренний мир AutoCAD" (Перевод с англ.) Kiev: DiaSoft 2000. I-раздел.

Kompyuter grafikasi fani quyidagi texnik va dasturlar vositalari yordamida o'qitiladi:

1) Texnik vositalar (1-rasm):



1-rasm

1-Display—monitor;

2-Kiritish qurilmalari: klaviatura-tugmalar paneli, sichqon va boshqalar;

3-Tashqi xotira qurilmasi—protsessor;

4-Qog'ozga chiqarish qurilmasi—printer, plotter va boshqalar.

Dasturlar vositalari. Dasturlar sistemali-operasion va amaliy dasturlarga bo'linadi. Operatsion dasturlar foydalanuvchini kompyuter bilan muloqot qilishida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida tezkor xotiradan foydalanish, disketlardiagi axborotlarni o'qish, axborotlarni disketga yozish, amaliy dasturlarni ishga tushirish kabi amallar bajariladi.

Amaliy dasturlar u yoki bu grafik axborotlar uchun tuziladi va kompyuterga kiritiladi. Dasturlar Beysik yoki Paskal tilida tuziladi. Ushbu o'quv qo'llanmada kompyuter grafikasida loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi AutoCAD programmalaridan foydalanib, grafik axborotlarni kompyuterda bajarishni o'rganiladi. Bunda foydalanish uchun ishlab chiqilgan AutoCADning oxirgi versiyalari AutoCAD-2000 va AutoCAD-2002 dasturlaridan foydalaniladi.


1.1. AutoCAD 2000 ni yuklash

Ma'lumki kompyuter quyidagi ketma-ketlikda elektr tarmog'iga ulanadi, ya'ni yuklanadi: PROTSESSOR - MONITOR - PRINTER va boshqalar. Uni o'chirish esa, aksincha bo'ladi: PRINTER - MONITOR - PROTSESSOR. Kompyuter elektr manbaiga ulangach, ekranning chap tomonida ustun ko'rinishida unga kiritilgan asosiy programmalar, "Ярлык"-ramziy belgi ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Ular orasidan "AutoCAD 2000 yoki AutoCAD 2002" ga kursorni "Sichqon" yordamida olib kelib, uning chap tugmasi ketma-ket ikki marotaba yuklanadi. Ekranda qum soat bilan kursorni strelkasi yonma-yon paydo bo'ladi va biroz vaqt o'tgach, ekranda AutoCAD-2000 yozuvi va uni yuklanish darchasi paydo bo'ladi. Bu darchaning yuqori chap burchagida to'rtta knopka-tugmalari joylashgan bo'lib ular quyidagi vazifalarni bajarishga mo'ljallangan (2-rasm):

1- "Открыть чертёж" - avval tuzilgan chizmani ochish, ya'ni ekranga fayllari nomlab xotiraga kiritib qo'yilgan chizmalarni chaqirish buyrug'ining tugmasi.

2- "Начать с начало" - yangi chizma boshlash buyrug'ining tugmasi.
3- "Использовать шаблон" - shablonlardan foydalanish buyrug'ining tugmasi. U yoki bu formatdan va burchak shtamplaridan foydalanishni ta'minlaydi.


4- "Использовать волшебник" - sehr buyrug'idan foydalanish tugmasi. Bu buyruqdan foydalanib AutoCADni yuklash ikki holatda amalga oshiriladi:
1. Tezkor yuklash; 2. Kengaytirilgan yuklash.
Tezkor moslash holatida 2- "Начать с начало" tugmasi yuklanadi. Shunda o'Ichov birliklari va chizma qog'ozining formati taklif qilinadi.



2-rasm

Kengaytirilgan moslash holatida esa, o'lchov birliklari, burchak kattaliklari, burchaklar yo'nalishi, burchaklarning musbat yo'nalishi va chizma qog'ozining yuzasi-formati taklif qilinadi. Kengaytirilgan moslash holatini, ya'ni 4-tugma ENTER bilan yuklansa, undagi qo'shimcha buyruqlar ro'yxati paydo bo'ladi (3-rasm).

"J-Units"-o'lchov birligi tugmasi: o'nli metrik, injenerlik, arxitektorlik, kasrlik va ilmiy o'lchov birliklari taklif qilinadi. Bu o'lchov birliklarini taqqoslashga misol tariqasida derazaning balandligi ko'rsatilgan.



3-rasm

Ikkinchı qo'shimcha buyruqqa o'tish uchun "Далее" knopkasi- tugmasi yuklanadi:

2-“Angle”-burchaklar. Burchak kattaligi aylananing gorizontal markaz chizig'ining o'ng tomonidan “Sharqdan” boshlab olinadi. Burchaklarning o'Ichov birliklarini va ularni kiritilishini 90° li burchak misolida ko'rish mumkin. Uchinchi qo'shimcha buyruqqa o'tish uchun “Далее” tugmasini bosiladi.

3-“Angle Measure”-burchaklarni o'lchab qo'yishda 0 (nol) ga teng bo'lgan boshlang'ich yo'nalishni belgilaydi. To'rtinchi qo'shimcha buyruqqa o'tish uchun "Далее" tugmasi bosiladi.

4-“Angle Direction”-burchakning musbat yo'nalishini soat strelkasi bo'yicha yoki unga teskari tanlashni ta'minlaydi. Besinchi qo'shimcha buyruqqa o'tish uchun "Далее" tugmasi yuklanadi:

5-“Area”-soha-chizma qog'ozining chegarasi-formati aniqlanadi.


Agar AutoCAD-2000 dasturida tezkor moslash holati yuklansa, bu beshta qo'shimcha buyruqlardan faqatgina ikkitasi, o'Ichov birliklari va “Soha” buyruqlari taklif etiladi. Bu ko'rsatkichlar chizmachilikdan grafik axborotlarni bajarishda yetarli bo'lganligi uchun undan foydalaniladi. Bunda taklif qilingan metrik yoki Angliyaning uzunlik o'lcham birliklaridan "Метрическое" buyrug'i yuklanib, yuklash darchasini pastki o'ng burchakdagi "ГОТОВО" yoki “OK” tugmasi yuklansa, ekran ishchi holatiga o'tib qoladi. Ekranning bunday ko'rinishiga ishchi stol yoki foydalanish interfeysi deb ataladi (5-rasm).

AutoCAD-2002 dasturini yuklash takomillashtirilgan bo'lib, u yuklangach, ekranda bu dasturning yuklash “AutoCAD 2002 Сегодня” darchasi 4-rasmida keltirilgan ko'rinishda paydo bo'ladi.


“Open Drawings”-chizmani ochish tugmasini yuklab, avval bajarilgan va xotiraga fayli kiritib qo'yilgan chizmalarni ekranga chaqirish uchun foydalaniladi.

“Create Drawings”-yangi chizma boshlash tugmasini yuklab, ekranda chizma bajarish uchun yangi sahifa ochishga quyidagicha kirishiladi: “Select how to begin:”-darchasidan “Start from Scratch”-buyrug'i yuklanadi. Shunda yuklash darchasida ingliz va metrik uzunlik birliklari taklif etiladi va undan “Metric” uzunlik birligi tanlanib yuklanadi. Shunda ekranda aynan, 5-rasmida tasvirlangan kabi ishchi stol yoki foydalanish interfeysi paydo bo'ladi.

Autokat 2004 va 2006 versiyalarida bu dastur yuklangach, foydalanish interfeysi o'z-o'zidan paydo bo'ladi.



4-rasm



5-rasm

1.2. Foydalanish interfeysi-stoli

AutoCADning ishchi stoliga quyidagi elementlar kiradi:

Tushuvchi menyular qatori ekranning yuqorisida joylashgan bo‘ladi (6-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11

AutoCAD 2000 - [Drawing1]

Файл Правка Вид Вставка Формат Инструменты Чертение Размеры Изменить Окно Помощь

6-rasm

1-“Файл”-fayllar bilan ishlash menyusi;

2-“Правка”-“Windows” stolidagi grafik maydon qismlarini tahrir qilish menyusi;

3-“Вид”-ekranni boshqarish buyruqlarini menyusi. Varaq fazosidan modellar fazosiga o‘tish, display ko‘rsatkichlarini boshqarishda kerakli asboblar panelini va boshqa buyruqlarni o‘rnatadi;

4-“Вставка”-ilovadagi va tashqi ob‘yektlarni bloklarga qo‘yishni ta‘minlash menyusi;

5-“Формат”-qatlamlar bilan ishlashni, rang va chiziq turlari, matn stilini va o‘lchamini boshqarishni, multleniyalar ko‘pchiziqlar stilini, o‘lcham birligini o‘rnatish, chizmani chegaralarini aniqlash kabi buyruqlarning menyusi;

6-“Инструменты”-ekrandan foydalanishda tizimlarni boshqarish buyruqlari menyusi. Ular yordamida muloqotlar darchasidadan foydalanib, chizma ko‘rsatkichlarini va bog‘lamlarini o‘rnatish kabi buyruqlar yuklanadi;

7-“Чертение” - chizma chizish buyruqlarini ochadi;

8-“Размеры”-o‘lcham ko‘rsatkichlarini boshqarish va ularni qo‘yish buyruqlarini ochadi;

9-“Изменить”-chizma elementlarini o‘zgartirish-chizmani va undagi yozuvlarni tahrir qilish buyruqlarini ochadi;

10-“Окно”-bir vaqtida foydalanishda bo‘lgan axborotlarni fayldan faylga o‘tib ularni ochadi;

11-“Помощь”-ingliz tilidakuchli gi pertekstli eslatmalar tizimini ochadi.

Standart asboblar paneli, u ekranning yuqorisidan ikkinchi qatorda joylashgan bo‘ladi (7-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17 18 19 20 21 22 23 24



7-rasm

1-“Создать”-yangi faylni yaratishda yangi varaq ochish buyrug‘ining tugmasi;

- 2-“Открыть”-mavjud faylni ochish buyrug‘ining tugmasi;
3-“Сохранить”-fayllarni xotirada saqlash buyrug‘ining tugmasi;
4-“Печать”-chizmani qog‘ozga chiqarish buyrug‘ining tugmasi;
5-“Предворительный просмотр”-chizmani qog‘ozga bosib chiqarishdan avval uni chizma formatida joylashuvini ko‘zdan kechirish buyrug‘ining tugmasi;
- 6-“Найти и заменить”-chizmadagi so‘z va jumlalarni topib boshqasiga almashtirish buyrug‘ining tugmasi;
- 7-“Вырезать в буфер”-chizmadan belgilab olinganlarni- elementlarni “Windows” buferiga kesib olish buyrug‘ining tugmasi;
- 8-“Копировать в буфер”-tanlab olingan elementlarni “Windows” buferiga nusxasini olish buyrug‘ining tugmasi;
- 9-“Вставить из буфера”-“Windows” buferidan nusxalarni chiqarib qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;
- 10-“Математические свойства”-ob‘yekt haqida ma‘lumotlar buyrug‘ining tugmasi;
- 11-“Отменить”-oxirgi amalni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;
- 12-“Повторить”-oxirgi bekor qilingan amalni qayta tiklash buyrug‘ining tugmasi;
- 13-“Вставить ссылку”-o‘zga faylga ko‘rsatma berish buyrug‘ining tugmasi;
- 14-“Временная точка трассировки (открывает список команд)”-ob‘yektlarni bog‘lovchi buyruqlar ro‘yxatini ochish buyrug‘ining tugmasi;
- 15-“(PSK)”-koordinatalardan foydalanish tizimida ishslash buyrug‘ining tugmasi;
- 16-“Расстояние”-masofani, XY Tekesligida burchakni va nisbiy burchakni, ΔX , ΔY , ΔZ larni aniqlash buyrug‘ining tugmasi;
- 17-“Перечертить все”-ekranda chizmani qayta-boshqatdan chizish buyrug‘ining tugmasi;
- 18-“Диалог точки вида”-bir nechta ko‘rinishlar ekranini yaratish buyrug‘ining tugmasi. Masalan, ustidan, oldidan va yonidan ko‘rinishlarni;
- 19-“Именованные виды”-ko‘rinishlarni almashtirish buyrug‘ining tugmasi, masalan, ustidan ko‘rinishni izometriyaga;
- 20-“3D Орбита”-fazoda 3D ob‘yektni burish buyrug‘ining tugmasi;
- 21-“Панорама реального времени”-foydalanuvchiga model fazosini-chizmani qulay joyga siljитish buyrug‘ining tugmasi;
- 22-“Масштаб реального времени”-ayni vaqtda ko‘rinishlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish buyrug‘ining tugmasi;
- 23-“Окно измерения масштаба (открывает список команд)”-

kattalashtirish yoki kichiklashtirishning turli usuldagagi asboblarini tanlash buyrug'ining tugmasi. Masalan, chizmaning kichik bir bo'lagini ekran bo'ylab kattalashtiradi;

24-“Предыдущий масштаб”-dastlabki mashtabiga qaytarish buyrug'ining tugmasi.


“**Свойства объекта**”-“**Ob'yeektning xususiyati**” paneli yordamida ekranda qatlamlar yaratiladi va chiziqlarni rangi, turi hamda yo'g'onliklari o'zgartiladi (8-rasm).

1

2

3

4



8-rasm

1-ekranda qatlam yaratish buyrug'ining tugmasi;

2-tasvirdagi chiziqlarga rang berish buyrug'ining tugmasi;

3-tasvirdagi chiziqlarga tur berish buyrug'ining tugmasi;


4-tasvirdagi chiziqlarga yo'g'onlik berish buyrug'ining tugmasi.

Chizma chizish, ularni tahrir qilish, ularni o'zaro bog'lash va ularga o'lcham qo'yish buyruqlarining shartli belgili tugmalari ekranning chap va o'ng tomonlarida ustunlar ko'rinishida joylashtirilgan bo'ladi va ularga quyidagilar kiradi:

“Рисования”-“Chizish” paneli buyruqlari, “Изменить”-“O'zgartirish” panelining buyruqlari, “Размеры”-“O'lchamlar” panelining buyruqlari va “Привязка объекта”-“Ob'yeektni bog'lash” panelining buyruqlari.

“Рисования”-“Chizish” paneli buyruqlari (9-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16



9-rasm

1-“Отрезок”-kesma chizish buyrug'ining tugmasi;

2-“Прямая”-to'g'ri chiziq chizish buyrug'ining tugmasi;

3-“Мультилиния”-мультлиния-qo'sh chiziqlar chizish buyrug'ining tugmasi;

4-“Полилиния”-ko'p chiziq chizish buyrug'ining tugmasi;

5-“Многоугольник”-ko'pburchak chizish buyrug'ining tugmasi;

6-“Прямоугольник”-To'rtburchak chizish buyrug'ining tugmasi;


7-“Дуга”-yoy chizish buyrug'ining tugmasi;

8-“Круг”-aylana chizish buyrug'ining tugmasi;

- 9-“Сплайн”-egri chiziq chizish buyrug‘ining tugmasi;
 10-“Эллипс”-elli ps chizish buyrug‘ining tugmasi;
 11-“Вставить блок”-blokni qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;
 12-“Создать блок”-blok yaratish buyrug‘ining tugmasi;
 13-“Точка”-nuqta qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;
 14-“Штриховка”-kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash buyrug‘ining tugmasi;
 15-“Область”-3D ob‘yektida soha ochish buyrug‘ining tugmasi;
 16-“Многострочный текст”-ko‘p qatorli yozuvlar bajarish buyrug‘ining tugmasi.

“Изменить” - “O‘zgartirish” panelining buyruqlari(10-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16




10-rasm

- 1-“Стереть”-tanlangan ob‘yektni o‘chirish buyrug‘ining tugmasi;
 2-“Копировать”-ob‘yektdan nusxa olib ko‘chirish buyrug‘ining tugmasi;
 3-“Зеркало”-ob‘yektga simmetrik tasvir yasash buyrug‘ining tugmasi;
 4-“Сдвиг”-tanlangan ob‘yektni surish buyrug‘ining tugmasi;
 5-“Массив”-ob‘yektning tasvirini ko‘paytirib tasvirlash buyrug‘ining tugmasi;
 6-“Переместить”-tanlangan ob‘yektni ko‘chirish buyrug‘ining tugmasi;
 7-“Повернуть”-ob‘yektni biror burchakka burish buyrug‘ining tugmasi;
 8-“Масштаб”-ob‘yektning tasvirlarini va o‘lchamlarini o‘zgartirish buyrug‘ining tugmasi;
 9-“Растянуть”-tanlangan ob‘yektni uzaytirish buyrug‘ining tugmasi;
 10-“Удлинить”-tanlangan ob‘yektni cho‘zish buyrug‘ining tugmasi;
 11-“Обрезать”-ob‘yektning ortiqcha qismini kesib tashlash buyrug‘ining tugmasi;
 12-“Расширить”-tanlangan ob‘yektni kengaytirish buyrug‘ining tugmasi;
 13-“Разорвать”-ob‘yektni nuqta oralig‘ida ajratish buyrug‘ining tugmasi;
 14-“Фаска”-burchak hosil qilib kesishuvchi chiziqlarning burchagi faskasini olish buyrug‘ining tugmasi;
 15-“Скругление”-ob‘yektlardagi burchaklarni aylana yoyi yordamida yumaloqlash buyrug‘ining tugmasi;
 16-“Удалить (Разорвать)”-ob‘yektlarni birlashtiruv qismlarini uzib olib yo‘qotish buyrug‘ining tugmasi;

“Размеры” - “O’lchamlar” panelining buyruqlari (11-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15



11-rasm

- 1-“Линейный размер”-chiziqli o’lcham qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;
2-“Параллельный размер”-og‘ma konturga o’lcham qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

3-“Ординатный размер”-ordinata o’lchamini qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

4-“Радиус”-yoj radiusining o’lchamini qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

5-“Диаметр”-aylana diametrining o’lchamini qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

6-“Угловой размер”-burchakli o’lcham qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

7-“Быстрое измерение”-tezkor o’lchash buyrug‘ining tugmasi;

8-“Базовый размер”-tayanch o’lchamni belgilab qo‘yish buyrug‘i-ning tugmasi;

9-“Размерная цепь”-zanjur usulida o’lcham qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

10-“Выноска”-chetga chiqarish buyrug‘ining tugmasi;

11-“Допуск”-chekli chetga chiqish o’lchamlarini qo‘yish buyrug‘ining tugmasi;

12-“Маркер центра”-aylana markazini ko‘rsatish buyrug‘ining tugmasi;

13-“Редактировать размер”-o’lchamlarni tahrir qilish buyrug‘ining tugmasi;

14-“Редактировать текст”-matnlarni tahrir qilish buyrug‘ining tugmasi;

15-“Обновить”-tanlangan o’lchamni yangilab qo‘yish buyrug‘ining tugmasi.

“Привязка объекта”-“Ob’ektini bog‘lash” panelining buyruqlari (12-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12 13 14 15 16 17



12-rasm

- 1-“Временная точка трассировки”-chiziq davomida yoki normalida vaqtincha nuqtalarni ko‘rsatish buyrug‘ining tugmasi;

2-“Snap from”-kerakli bog‘lanish nuqtasini ko‘rsatish buyrug‘ining tugmasi;
3-“Конечная точка привязки”-ob‘yektning eng yaqin chetki nuqtasiga bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

4-“Средняя точка привязки”-ob‘yektning o‘rtta nuqtasiga bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

5-“Привязка к пересечению”-ikki ob‘yektning kesishuv nuqtasiga bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

6-“Привязка к видимому пересечени”-taxminiy kesishuv nuqtasiga bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

7-“Snap to extesion”-kengaytirilib bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

8-“Привязка к центру”-markaz bilan bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

9-“Привязка к квадранту”-yo‘ yoki aylana yoki ellipsning yaqin kvadranti bilan bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

10-“Привязка к касательной”-aylana, yo‘ va boshqalarga urinma o‘tkazish buyrug‘ining tugmasi;

11-“Привязка к перпендикуляру”-nuqtadan to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar o‘tkazish buyrug‘ining tugmasi;

12-“Привязка к параллели”-nuqtadan ob‘yektga parallel ob‘yekt chizish buyrug‘ining tugmasi;

13-“Привязка к вставке”-qo‘yish ob‘yektini nuqtasiga bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

14-“Привязка к узлу”-tugunga bog‘lanisi buyrug‘ining tugmasi;

15-“Привязка к ближайшему”-ob‘yektning istalgan yaqin nuqtasi bilan bog‘lanish buyrug‘ining tugmasi;

16-“Не привязывать”-bog‘lanishini bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

17-“Параметры привязки объекта”-ob‘yekt ko‘rsatkichlarini bog‘lash buyrug‘ining tugmasi;

Muloqotlar derazasi ekrandan pastda joylashgan bo‘lib, foydalanuvchi har doim undan bohabar bo‘lmog‘i kerak. Chunki kompyuter ishslash jarayonida hamma vaqt u bilan muloqotda bo‘lib, biror vazifani bajarish uchun buyruq berishni so‘rab turadi.

Holatlar qatori ekranning eng pastki qismida joylashgan bo‘ladi (13-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8

2-“CETKA”-ekranni to‘r ko‘rinishli holatga o‘tkazish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

3-“OPTO”-ekranni to‘g‘ri burchakli chizish holatiga o‘tkazish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

4-“ПОЛЯР”-kesma chizishda qutb holatiga o‘tish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

5 - “ВыIPB”-ob‘yektga to‘g‘rilab bog‘lanish holatiga o‘tish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

6 -“СЛЕД”-ob‘yektni kuzatish holatiga o‘tish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

7 - “ВЕСЛИН”-chiziqni yo‘g‘onligida tasvirlash holatiga o‘tish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

8 - “МОДЕЛ”-modellar fazosini chizma qog‘ozni holatiga o‘tkazish yoki uni bekor qilish buyrug‘ining tugmasi;

AutoCAD-2000 dasturini yuklab, uning ishchi stolining barcha elementlarini-buyruqlar panellarini va ulardagi buyruqlar tugmalarini yozib oling.

Tayanch iboralar:

Kompyuter texnologiyasi

AutoCAD dasturini yuklanish darchasi

Tezkor va kengaytirilgan yuklash

Kompyuter grafikasining vositalari

Texnik vositalar

Amaliy va operatsion dastur vositalari

Tayyor buyruqlar paketi

Foydalanish interfeysi-stoli

Tanishuv menyular qatori

Standart asboblar paneli

Ob‘yekt xususiyatlari paneli

«Chizish» paneli

«O‘zgartirish» paneli

«O‘lcham qo‘yish» paneli

«Ob‘ektga bog‘lanish» paneli

Nazorat savollari:

1. AutoCAD dasturi qanday tartibda yuklanadi va undan chiqiladi. Kompyuter qanday tartibda elektr tarmog‘iga ulanadi va u qanday tartibda o‘chiriladi

2. Foydalanish interfeysi-stoli qanday elementlardan iborat va ular yordamida qanday amallar bajariladi.

II-MASHG'ULOT

Mavzu: Ekranda kesma chizish, uni vaziyatini o'zgartirish, unga rang, tur, ya'ni tus-qiyofa va yo'g'onlik berish buyruqlari va ulardan foydalanish algoritmlari

Adabiyot:

1. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: "Практический курс", Москва, "DESS SOM", 2002г., 199 - 210 стр.
2. Барчард Б. и др. "Внутренний мир AutoCAD" (Перевод с англ.) Киев: DiaSoft 2000. V-раздел.


2.1. Ekranda AutoCAD dasturida biror kesma chizish buyrug'i quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi

1. "Отрезок"-kesma chizish tugmasi yuklangach, muloqotlar darchasidada "Boshlang'ich nuqtasini kriting" so'rovi paydo bo'ladi (14-rasm).

```
Command _line Specify first point *Cancel*
Command:
Command _line Specify first point
```

14-rasm

Unga javoban kesmani dastlabki nuqtasining X1, U1 koordinatalarini terib yoki "Sichqon" yordamida cursor nishoni bilan ixtiyoriy X1i, U1i koordinatalar kiritiladi. Shunda navbatdagi, "Keyingi nuqtasini kriting" so'rovi paydo bo'ladi (15-rasm).




15-rasm


2. Bu so'rovga ham dastlabki nuqtaning koordinatalarini kiritgan kabi, X2, Y2 yoki X2i, Y2i koordinatalari kiritiladi va ekranda kesma paydo bo'ladi (16-rasm).

Muloqotlar darchasidada yana ikkinchi to'g'ri chiziqni chizish uchun navbatdagi nuqtasini kiritishni so'raydi. Bunday nuqtalarni ketma-ket kiritib, ko'plab kesmalarni ketma-ket o'tkazish mumkin. Kesma chizish buyrug'idan chiqish uchun "Enter" yoki "ESC" tugmasini ketma-ket ikki marotaba yuklanadi.

Ikkinchi va uchinchi kesmalarni o'tkazgach, keyingi so'rovda, qavs ichida "Close"-“Замкни”-“Birlashtir” yoki “Undo” - “Отмени” - “Bekor qilish” qo'shimcha buyruqlari paydo bo'ladi (17-rasm).



16-rasm



17-rasm

“Close”-“Замкни”-“Birlashtir” so‘zining bosh harfini terib, “Enter” yuklansa, oxirgi kesma uchi birinchi kesmaning boshlang‘ich nuqtasi bilan birlashib qoladi.

“Undo”-“Отмени”-“Bekor qil” so‘zining bosh harfini terib “Enter” bilan qayd etilsa, oxirgi chizilgan kesma ekrandan yo‘qoladi. Bunday amallarni ketma-ket bajarib, bir buyruqda chizilgan kesmalarni birin-ketin ekrandan yo‘qotish (o‘chirish) ham mumkin.

Ekranda tasvirlangan chiziqlarni va kesmalarni yo‘qotish uchun ularni bitta-bitta kurso bilan “Sichqon” yordamida ajratib olinadi va “Delete” yoki “Enter” tugmasi bosiladi.

Agar ekranda chiziqlar ko‘p bo‘lsa, kursorni ekranning biror burchagiga keltirib, “Sichqon”ni chap tugmasi bosilib, uni ikkinchi qarama-qarshi burchagiga dioganal chiziq bo‘ylab suriladi. Natijada kattalashib boruvchi to‘g‘ri to‘rt burchak paydo bo‘ladi. “Sichqon” tugmasini ikkinchi marotaba yuklab, barcha chiziqlar yoki tasvirlar ajratiladi, ular shtrix ya‘ni uziq-uziq chiziqlar ko‘rinishida, ko‘k rangda tasvirlanib qoladi. “Enter” yoki “Delete” tugmasi yuklanib, barcha chiziqlar ekrandan yo‘qotiladi. Bunda hosil bo‘ladigan ajratish to‘g‘ri to‘rt burchaklari o‘ng tomonidan boshlansa, ular shtrix chiziq bilan tasvirlanib, uning sohasiga biror uchi kirib qolgan chiziqlarni ham ekrandan yo‘qotish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar u chap tomonidan ochilsa, to‘g‘ri to‘rt burchak tutash chiziqlar bilan tasvirlanib, u faqat Shu to‘rt burchak sohasida hamma nuqtalari bilan joylashgan chiziqlarnigina ekrandan yo‘qotadi.

2.2. Ekrandagi kesmani yangi vaziyatga keltirish amali va undan foydalanish algoritmi quyidagicha bo‘ladi


1. Kesma ajratiladi: kurson “+” nishoni “Sichqon” yordamida kesmaga keltiriladi va yuklanadi.

2. Kursorni kesmaning biror uchidagi kvadrat nishoncha bilan bog‘lab, istalgan joyga ko‘chiriladi va qayd etiladi (18-rasm). Natijada kesma yangi vaziyatga kelib qoladi.


3. Agar kesma o‘rtasida joylashgan kvadrat nishonni kurson bilan bog‘lab, istalgan joyga ko‘chirilib qayd etilsa, kesmaning yangi vaziyati, dastlabki berilgan vaziyatiga parallel holda tasvirlanib qoladi.

2.3. Kesmaga rang berish buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi quyidagicha bo‘ladi


1. Kesma ajratiladi;

2.  Birinchi «Bulayer» (по слову) rang tugmasi yuklanadi:

Shunda standart ranglar ro‘yxatini taklif qiluvchi darcha paydo bo‘ladi (19-rasm). Agar ulardan bo‘lak boshqa rang tanlash lozim bo‘lsa, «Другое» tugmasi yuklanadi va boshqa ranglarni o‘ziga jamlagan




18-rasm




19-rasm

“Rang tanlash” darchasi paydo bo‘lib, unda jamlangan turli xildagi ranglar taklif qilinadi (20-rasm). Bu darchadan tanlangan rangni kurson yordamida yuklanadi va ketma-ket ikkita «OK» tugmalari yuklanib, uni standart ranglar ro‘yxatiga o‘tkaziladi. Shunda «Bulayer» o‘rnida yangi rang nomerini yozuvi paydo bo‘ladi. So‘ngra “ESC” tugmasini ikki marotaba ketma-ket yuklansa, kesma chizig‘i yangi rangda tasvirlanib qoladi. Agar rang tugmasidagi yozuv yangi rang yozuvi bilan qoldirilsa, keyingi chiziladigan kesmalar va chiziqlar tanlangan rangda chiziladi. Bu rangdan chiqish uchun u yuklanadi va ranglar ro‘yxatidan “Bulayer” tugmasi yuklanadi.



20-rasm



21-rasm

2.4. Kesmani chiziq turlariga muvofiq chizish buyrug'i va undan foydalanish algoritmi quyidagicha bo'ladi


1. Ikkinchи “Bylayer” (Типы линии) chiziq turlari tugmasi yuklanadi;

Bu buyruqdagи chiziq turlarini ro'yxati taklif etiladi (21-rasm). Agar chiziqlarning boshqa turlari kerak bo'lsa, ro'yxatning eng pastida joylashgan «Другое» tugmasi yuklanadi.


Shunda ekranda “Chiziq turlari menedjeri” ning darchasi paydo bo'ladi. Undagi yuqori o'ng tomonida joylashgan «Загрузить» qo'shimcha buyrug'i yuklanadi. Natijada darcha o'rtasida kompyuterga kiritilgan chiziq turlarining nomi va tasviri taklif qilinadi (22-rasm).

2. Undan istalgan chiziq turini, masalan, «Dosh doot» yoki «Dosh doot 2» «Sichqon» bilan yuklanadi va “OK” tugmasi bosiladi.

Shunda derazani dastlabki ko'rinishi paydo bo'ladi va yana undagi “OK” tugmasi yuklanadi;



22-rasm




23-rasm

4. Kesma ajratiladi;

5. “Bylayer” - chiziq turlari tugmasi yuklanadi va ro‘yxatdan chiziq turi tanlanib yuklanadi va ekrandagi ajratilgan kesma tanlangan chiziq turida chizilib qoladi.

2.5. Chiziqni yo‘g‘onlashtirish algoritmi buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi quyidagicha bo‘ladi

1. Kesma ajratiladi;

2.  Uchinchi “Bylayer” (по слову)-chiziq yo‘g‘onligi - “Веслин” tugmasi yuklanadi: Kompyuterga kiritilgan yo‘g‘onliklar ro‘yxatining darchasi paydo bo‘ladi (23-rasm). Ulardan birortasi tanlanib yuklanadi;

3. Ekranda chiziqning yo‘g‘onligini o‘zgarganligini aniqlash uchun holatlarni boshqarish qatoridagi “ВЕСЛИН” tugmasi yuklanadi.

Shunda kesma chizig‘i tanlab olingan yo‘g‘onlikda tasvirlanib qoladi. Agar tanlab olingan yo‘g‘onlik qiymati uchinchi “Bylayer” so‘zi o‘rnida yozilgan bo‘lsa, keyingi chiziladigan chiziqlar yo‘g‘onligi tanlab olingan yo‘g‘onlikda chiziladi. Bu yo‘g‘onlikdan chiqish uchun tanlab olingan yo‘g‘onlik yuklanadi va ro‘yxatdan “Bylayer” so‘zi yuklanadi. Natijada ekrandagi chiziqlar kompyuterda o‘rnatilgan standart yo‘g‘onlikka o‘tib qoladi.

Yuqorida o‘tilgan chizma chizish buyruqlaridan foydalanib 24 va 25-rasmarda keltirilgan chiziq turlari va to‘g‘ri to‘rtburchak sohaning shtrixlanishi bajarilsin. Chiziqlarni turli vaziyatlarga keltirishni va ularga har xil rang berishni ham mashq qilib ko‘ring.



Tayanch iboralar:

AutoCAD da kesma chizihs

Kesmani vaziyatini o‘zgartirish

Kesmaga rang berish

Kesmaga tur berish

Kesmani yo‘g‘onlashtirish

Nazorat savollari:

1. AutoCAD dasturida kesma qanday algoritm asosida chiziladi;
2. Kesmaning vaziyatini qanday algoritm asosida o‘zgartiriladi;
3. Kesmaga qanday algoritm asosida rang beriladi;
4. Kesmaga qanday algoritm asosida tur-tus beriladi;

III-MASHG'ULOT

Mavzu: Dekart koordinatalar sistemasida nuqta koordinatalarini kiritish usullari

Adabiyot:

1. www.info-baz.narod.ru, IV-bob "Свойства". 1-часть.
2. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: "Практический курс", Москва, "DESS SOM", 2002г., 199 - 210 стр.
3. Барчард Б. и др. "Внутренний мир AutoCAD" (Перевод с англ.) Киев: DiaSoft 2000. V-раздел.

Tekislikda ikki yoki fazoda uch o'lchamli tasvirlarni bajarishda turli koordinatalar tizimini va ularidan foydalanishni bilish zarur bo'ladi. AutoCAD dasturida quyidagi koordinatalar tizimidan: dekartik, silindrik va sferik koordinatalardan hamda koordinatalarning kiritishning qutb usullaridan foydalanish mumkin.


3.1. Nuqta koordinatalarini kiritishning absolyut koordinatalar usuli

Dekart koordinatalar tekisligida X va Y koordinatalarni klavishalar yordamida, ular orasiga vergul belgisi qo'yib kiritiladi. Dekart koordinatalar tizimida nuqtaning koordinatalari ikki xil, absolyut va nisbiy koordinatalar usulida kiritiladi.

Absolyut koordinatalar tizimida nuqtaning koordinatalari ekranning chap quiy burchagida joylashgan, koordinatalar boshidan hisoblanadi. Masalan, uzunligi 100 mm bo'lgan gorizontal kesmani absolyut koordinatalar usulida quyidagi tartibda-algoritmda kiritiladi:


1. Kesma yuklanadi, shunda muloqotlar darchasidada "Boshlang'ich nuqtasini kriting" so'rovi paydo bo'ladi. Bu so'rovga javoban kesmaning birinchi uchini koordinatalari, masalan, 70,100 klavishalar yordamida teriladi va "Enter" ni yuklab qayd etiladi;

2. Koordinatalar boshiga nisbatan kesmaning ikkinchi uchini koordinatalari 170,100 bo'ladi. Bu qiymatlarni klavishalar yordamida terib kiritiladi va "Enter" bilan qayd etiladi. Natijada ekranda gorizontal kesma, berilgan 100 mm uzunlikda chizilib qoladi (26-rasm).



26-rasm

Misol: Tomonlari ekranda tasvirlangan kesmaga teng bo'lgan kvadrat yasalsin. Uning qolgan uchlarining koordinatalari quyidagicha bo'ladi (27-rasm). Burchak koordinatalarini shunday bo'lishiga izox bering.




3.2. Nuqta koordinatalarini kiritishning nisbiy koordinatalar usuli


Nuqta koordinatalarini kiritishning nisbiy usulida nuqtaning koordinatalari, kursov turgan oxirgi nuqtadan boshlab xisoblanadi. Buning uchun "Shift"+“2” klavishalarini birgalikda yuklanadi. Natijada bu oxirgi nuqta koordinatalar boshi bo'lib qoladi. Bu holni muloqotlar darchasidagi navbatdagi so'rovda yozilgan "@" – ramziy "Собачка" belgi qayd etadi. Masalan, uzunligi 100 mm bo'lgan gorizontal kesmaning tasvirini yasash uchun uning uchlarini koordinatalari, nisbiy koordinatalar tizimida quyidagicha kiritiladi:

1. Kesma yuklanadi va uning birinchi uchi "Sichqon" yordamida ixtiyoriy joyda qayd etiladi. Shunda muloqotlar darchasida quyidagi so'rov paydo bo'ladi: "Ikkinci uchini kriting". Agar bu so'rovga "@" – "Собачка" yuklansa, kesmaning birinchi uchi, yangi koordinatalar boshi bo'lib qoladi;

2. Kesmaning uzunligi 100 mm ni hisobga olib, uning ikkinchi uchini koordinatasi (@100,0) kiritiladi va "Enter" bilan qayd etiladi. Ekranda uzunligi 100 mm bo'lgan gorizontal kesma chiziladi (28-rasm).



Misol: Tomonlari ekrandagi kesmaga teng bo'lgan kvadrat yasalsin. Kvadrat uchlarining koordinatalarini kiritish quyidagicha bo'ladi (29-rasm). Koordinatalarni shunday bo'lishini izoxlab bering.



29-rasm


3.3. Nuqta koordinatalarini kiritishning qutb usuli

Nuqta koordinatalarini kiritishning qutb usulida kesma uzunligini va uning gorizontal chiziqliqa nisbatan hosil qilgan burchak qiymatini XY tekisligiga kiritiladi. Bunda burchakning boshlang'ich 0 (nol) qiymati "Sharq"da, ya' ni ekranning o'ng tomonidagi gorizontal chiziqdagi joylashgan bo'ladi. Musbat ishorali burchaklar soat strelkasi yo'nalishiga teskari olinadi.

Masalan, uzunligi 100 mm bo'lgan va OX o'qiga 25 gradus burchak ostida joylashgan kesmani qutb usulidan foydalanib chizish quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. Kesma yuklanadi va uning birinchi uchi "Sichqon" yordamida qayd etib kiritiladi va "@"-“Собачка” yuklanadi;

2. Kesma uzunligi, burchak "<" belgisi va burchak qiymati klavishalar yordamida kiritiladi va "Enter" bilan qayd etiladi: "@100<25". Natijada ekranda koordinatalari ixtiyoriy bo'lgan nuqtadan OX o'qiga 25° burchak ostida joylashgan va uzunligi 100 mm bo'lgan kesma chiziladi (30-rasm).



30-rasm

Misol: Tomonlari 120 mm va pastki chap burchaginining koordinatasi 120,60 bo'lgan kvadrat yasalsin. Uning qolgan uchlarining koordinatalari quyidagicha bo'ladi va uni izoxlab bering (31-rasm).

@ 120<180

@ 120<90

@ 120<270 ёки С

120,60

@120<0



31-rasm


3.4. Kesma uzunligini tezkor kiritish usuli

Kesma uzunligini tezkor kiritish usulida, kesmaning boshlang'ich nuqtasi kiritilgach, kursor bilan kesma yo'nalishi belgilanib, uning uzunlik qiymati to'g'ridan to'g'ri klavishalar yordamida terib kiritiladi.

Bu usulda kesmaning chizmasi quyidagi tartibda bajariladi:

1. Kesma buyrug'i yuklanadi va uning birinchi so'roviga uning boshlang'ich uchi "Sichqon" yordamida yoki uni koordinatalari terib kiritilib qayd etiladi;

2. Bu nuqtadan kursor o'mini ixtiyoriy yo'nalishda ko'chiriladi va uzunlik qiymati kiritilib, "Enter" bilan qayd etiladi. Natijada tanlangan yo'nalishda va berilgan uzunlikda kesma chizilib qoladi (32-rasm).




32-rasm

Bu usul holatlarni boshqarish qatoridagi "OPTO" va "ПОЛЯР" buyruqlari bilan birgalikda ham ishlataladi. Agar "OPTO" yuklansa, gorizontal va vertikal kesmalar osongina chiziladi.


Oralari bir hil graduslarda bo'lgan kesmalarni chizish uchun "ПОЛЯР" tugmasi, "Sichqon"ning o'ng tugmasi yordamida yuklanadi. Shunda undagi ro'yhat darchasi paydo bo'ladi va undan "Параметри" tugmasi yuklanadi. Ekranda paydo bo'lgan darchadan "Приращение угла" tugmasi yuklanadi. Undagi burchaklar ro'yhatini ochib kerakli burchak yo'nalishi, masalan 30 gradus tanlanadi va "OK" tugmasi yuklanadi (33-rasm).

Agar kerak bo'lgan burchak qiymati ro'yhatda bo'lmasa, uni terib kiritiladi va "OK" tugmasi yuklanadi. So'ngra kursorni ekranning o'ng tomondagi nolga teng bo'lgan boshlang'ich burchakdan yuqoriga yoki pastga ko'chirib, kesmani og'dirib kiritilgan burchak vaziyatiga keltiriladi. Kesmaning bunday



33-rasm

vaziyatini kompyuter (avtomatik) o‘z-o‘zidan quyidagicha qayd etadi: kursorni pastki qismida “Полярный” so‘zi, uzunlik qiymati, burchak belgisi “<” va kiritilgan burchak qiymatlaridan iborat quyidagi yozuv paydo bo‘ladi: “Полярный: 191.2313<30°”(34-rasm).



34-rasm

Tayanch iboralar:

Absolyut koordinatalar Nisbiy koordinatalar

Qutb koordinatalar Kesma uzunligini tezkor kiritish

Nazorat savollari:

1. Nuqta koordinatalarini kiritishning absolyut usulida koordinatalar boshi qaerda joylashgan bo‘ladi.
2. Nuqta koordinatalarini kiritishda “Собачка”-@ ramziy belgi qanday holatni-vaziyatni belgilab qayd etiladi.
3. Nuqta koordinatalarini kiritishning nisbiy usulida koordinatalar boshi qaerda joylashgan bo‘ladi va bu usuldan foydalanish algoritmini aytib bering.

IV-MASHG'ULOT

Mavzu: Kompyuterda ko'pburchak va aylana chizish va aylana chizish buyruqlaridan foydalanib tutashmalar yasash

Adabiyot:

1. www.info-baz.narod.ru, II-боб “Примитивы”, 5-часть.
2. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: “Практический курс”, Москва, “DESS SOM”, 2002г., 199 - 210 стр.
3. Барчард Б. и др. “Внутренний мир AutoCAD” (Перевод с анг.) Киев: DiaSoft 2000. II-раздел.

4.1. Kompyuterda ko'pburchak chizish bo'yrug'i va undan foydalanish algoritmi

Kompyuterda ko'pburchak chizish buyrug'idan foydalanib chizish algoritmi quyidagicha bo'ladi:

1. ◊ “Ko'pburchak”-“Многоугольник” buyrug'i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasida quyidagi so'rov paydo bo'ladi:


“Ko'pburchak tomonlarining sonini kriting <7> : ”. Bu so'rovdagи <7> yozushi, bundan avval chizilgan ko'pburchak, yetti burchak ekanligini bildiradi.

Bu so'rovga tomonlar soni, masalan, 9 kiritiladi. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagи so'rov paydo bo'ladi: “Ko'pburchakning markazini ko'rsating : ”.

2. Bu so'rovga ko'pburchakning markazi “Sichqon” yordamida yoki terib kiritiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

3. Ko'pburchakni kompyuter muntazam qilib aylana ichiga yoki uni tashqarisiga chizadi. Shuning uchun ko'pburchakning markazi kiritilgach, navbatdagи so'rovda “Ko'pburchak aylanaga ichki yoki tashqi chizilsinmi” deb so'raydi. Bu so'rovga ichki yoki tashqi so'zlarining bosh harflarini kiritib, ko'pburchakni ichki (<I>) yoki tashqi (<C>) chizilishi tanlanadi.

4. Ulardan biri terib kiritilsa, muloqotlar darchasida navbatdagи so'rov paydo bo'ladi: “Aylananing radiusini kriting”. Bu so'rovga radius qiymati, masalan, 20 mm kiritilsa, ekrannda muntazam to'qqiz burchak chiziladi (35-rasm).



35-rasm

4.2. Kompyuterda aylana chizish buyrug'i va undan foydalanish algoritmi va aylana chizish va kesish buyruqlaridan foydalanib tutashmalar yasash

Kompyuterda aylanalar, uni quyidagi berilgan elementlariga tegishli bo'lgan buyruqlaridan foydalanib chiziladi:

1. Aylana markazi va radiusidan;
2. Aylana markazi va diametridan;
3. Uning berilgan ikki nuqtasidan;
4. Uning berilgan uch nuqtasidan;
5. Ikki urinish nuqtasi va radiusidan;
6. Uchta urinish nuqtasidan.

Aylana chizishning 5 va 6 bandlarida keltirilgan elementlariga mos bo'lgan buyruqlaridan foydalanib tutashmalar ham yasaladi.

Masalan, radiusi 50 mm bo'lgan aylana quyidagi algoritm asosida chiziladi:

1. Chizma asboblari panelidan ⓟ “Kpyr” tugmasi “Sichqon” yordamida yuklanadi va muloqotlar darchasida quyidagi so'rov paydo bo'ladi:

“Aylananing markazini kriting yoki $[3R/2R/ttg (\tan \theta / R)]$:”

2. Bu so'rovga aylananing markazi yoki uning 3-(3R) ta yoki 2-(2R) ta o'tish nuqtalari yoki ikkita urinish nuqtalari va radiusi-(ttr) kiritiladi;

Agar aylana markazi kiritilib qayd etilca, navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: “Aylananing radiusini kriting yoki [Диаметрни]:”

3. Radius qiymati 50 mm ni kiritiladi va qayd etiladi. Natijada radiusi 50 mm bo'lgan aylana chiziladi.

Agar aylana diametri qiymatidan foydalanib chizilsa, oxirgi so'rovga “D” harfi kiritiladi va qayd etiladi. Navbatdagi so'rovga diametr qiymati kiritiladi va qayd etiladi. Natijada berilgan diametrda aylana chiziladi.

1-misol: diametri 50,74 mm bo'lgan aylana chizilsin.

Agar aylana chizishda “Черчение” menyusidan foydalanilsa “Круг”

buyrug‘idagi darcha ro‘yxatida keltirilgan elementlaridan foydalanib aylana chiziladi.

“Черчение” menyusidan foydalaniб yuqoridagi misolda keltirilgan aylana quyidagicha chiziladi:

1. “Черчение” menyusi yukланади: undagi “Круг” buyrug‘iga kiriladi va uning darchasi ro‘yhatidagi “Центр. Диаметр” buyrug‘i yukланади (36-rasm).


2. Muloqotlar darchasidagi so‘rovga aylana markazi “Sichqon” yordamida yoki terib kiritiladi va qayd etiladi.

3. Navbatdagи so‘rovga diametr qiymati kiritiladi va natijada berilgan diametrda aylana chiziladi (37-rasm).


2-misol: Радиуси 40 mm bo‘lgan va berilgan ikki aylanaga urinib o‘tuvchi aylana chizilsin:

1. Черчение/Круг/Каст, Каст, Радиус buyruqlariga ketma-ket kirib yukланади.

2. Muloqotlar darchasidagi “Taxminiy urinish nuqtasini kriting” so‘roviga, urinish nuqtalari birinchi va ikkinchi aylanalarda ko‘rsatiladi. Muloqotlar darchasidada paydo bo‘lgan navbatdagи so‘rovga “Tutashtirish radiusini kriting” so‘roviga aylana radiusi kiritiladi. Shunda berilgan aylanalarga urinib o‘tuvchi va radiusi 40 mm bo‘lgan aylana chizilib qoladi (38-rasm).




36-rasm




37-rasm

Agar chizmada bu aylananing urinish nuqtalari oralig‘ini olib qolib, qolgan qismini o‘chirib yuborilsa, ikki aylananing tashqi tutashmasi hosil bo‘ladi (39-rasm).

Bu misoldagi tutashmani aylana buyrug‘i “Круг” tugmasidan foydalaniб ham quyidagicha chizish mumkin:



38-rasm



39-rasm

1. “Kpyr” buyrug‘i yuklanadi va undagi buyruqlardan “Ttr” qo‘shimcha buyrug‘i kiritiladi va qayd etiladi.

2. Muloqotlar darchasida paydo bo‘lgan “Taxminiy urinish nuqtasini kriting” so‘roviga birinchi va ikkinchi aylanalarning tutashmaga yaqinroq bo‘lgan taxminiy nuqtalari kursor bilan ketma-ket qayd etiladi.

3. Navbatdag‘i “tutashtirish radiusini kriting” so‘roviga aylana radiusining qiymati kiritiladi va berilgan aylanalarga urinib o‘tuvchi aylana chiziladi. Bu aylanani ortiqcha qismini yo‘qotib, ikki aylananing tashqi tutashmasi hosil qilinadi.


3-misol: Berilgan uchta aylanaga urinma bo‘lgan aylana o‘tkazilsin. Buning uchun quyidagi amallar bajariladi:

1. Черчение/Круг/Каст, Каст, Каст buyruqlariga ketma-ket kirib yuklanadi; yoki “Круг” buyrug‘i yuklanib “3P” teriladi va qayd etiladi. Shunda muloqotlar darchasida “Taxminiy urinish nuqtasini kriting” so‘rovi paydo bo‘ladi.

2. Aylanalarni taxminiy urinish nuqtasi ketma-ket “Sichqon” bilan qayd etib chiqiladi va aylanalarga urinma bo‘lgan aylana chiziladi (40-rasm).

Barcha tutashmalar aylanalar chizishning oxirgi ikki usulidan foydalanib bajariladi.


Agar berilgan chiziqlarga urinib o‘tgan aylananing ortiqcha qismi chizmadan o‘chirilsa yoki yo‘qotilsa, tutashma hosil bo‘ladi. Bunday amalni “Обрезать” - “Кесиш” buyrug‘idan foydalanib bajariladi. Bu buyruqda ekrandagi biror kesiluvchi chiziqlarni ortiqchasini ikkinchi kesuvchi chiziq yordamida kesib tashlanadi. Masalan, to‘g‘ri to‘rt burchakning yuqorio‘ng burchagidan o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziq berilgan bo‘lsin. Bu to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori o‘ng burchagini o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziq bilan kesib tashlash zarur bo‘lsa, uning algoritmi quyidagicha bo‘ladi:



40-rasm

1. “Kesish” - “Обрезать” buyrug‘i yuklanadi va kvadrat nishoncha kursorni “Sichqon” yordamida kesuvchi chiziq ajratiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

2. Kvadrat nishoncha-kursorni “Sichqon” yordamida kesiluvchi ikkinchi chiziqning ortiqcha qismi bilan bog‘lanadi va qayd etiladi. Natijada chizmadagi ortiqcha chiziq yo‘qoladi (41-rasm).



41-rasm

Chizmadagi ortiqcha chiziqlarni “Изменить” menyusidagi “Обрезать” buyrug‘idan foydalanib ham yuqorida keltirilgan ketma-ketlikda ekrandan yo‘qotish mumkin.

39-rasmdagi ikki aylananing tashqi tutashmasi, aylanalarga urinib o‘tuvchi kesiluvchi aylananing ortiqcha qismini, yuqorida keltirilgan “Kesish” - “Обрезать” buyrug‘idan foydalanib yasalgan. Buning uchun yuqoridagi birinchi va ikkinchi amallar ketma-ket bajariladi.

AutoCAD 2002 dasturida kesish buyrug‘i yuklanishi bilan ekrandagi barcha chiziqlar o‘z-o‘zidan ajratilgan bo‘ladi. Shuning uchun “Enter” yuklanib, ortiqcha chiziqlar ekrandan yo‘qotiladi.

4.3. Tutashmalarni yasashda yumaloqlash “Скругление” buyrug‘idan foydalanish mumkinligi va uning algoritmi

Agar tutashuvchi chiziqlar to‘g‘ri chiziq bo‘lsa, ularning tutashmasini “Yumaloqlash” - “Скругление” buyrug‘idan foydalanib bajarish qulayroq bo‘ladi. Bu buyruqdan burchaklarni yumaloqlashda ham foydalaniladi. Masalan, biror ko‘pburchakning burchaklarini radiusi 10 mm bo‘lgan aylana yoyi bilan yumaloqlash zarur bo‘lsa, uning algoritmi quyidagicha bo‘ladi:

1. “Yumaloqlash” - “Скругление” buyrug‘i yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasidada quyidagilar so‘raladi: “Birinchi ob‘yektni belgilang yoki [Pololine/Radius/Trim]:” buyruqlari taklif qilinadi;

“Pololine” buyrug‘i yordamida ko‘pburchakning barcha burchaklari birdaniga yumaloqlanib qoladi.


“Radius” - yumaloqlash radiusi.

“Trim” - yumaloqlangan burchakni kesib tashlash yoki uni kesmay goldirish imkoniyatini beradi.

2. Yumaloqlash radiusining qiymati kiritiladi. Buning uchun “R” harfi terilib qayd etiladi. Shunda muloqotlar darchasidada radius qiymatini kiritishni so‘raydi va uning qiymati terib kiritiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

Yumaloqlash radiusini yangi qiymati kiritilgach, kompyuter bu buyruqdan chiqib ketadi.

2. Ikkinci bor “Скругление” buyrug‘i yuklanadi va shunda “Birinchi ob‘yektni ko‘rsating” so‘roviga, ekranda paydo bo‘lgan kvadrat nishoncha bilan birinchi to‘g‘ri chiziq qayd etiladi. Shunda muloqotlar darchasidagi “Ikkinci ob‘yektni ko‘rsating” so‘roviga ikkinchi ob‘yekt-to‘g‘ri chiziq ham kvadrat nishoncha bilan “Sichqon” yordamida qayd etiladi. Natijada burchak berilgan radiusda yumaloqlanib qoladi (42-rasm).




42-rasm

Agar ko‘pburchakning hamma burchaklarini berilgan radiusda birdaniga yumaloqlash zarur bo‘lsa, qo‘srimcha “Pololine” buyrug‘idan quyidagicha foydalaniladi:

1. “Скругление”-“Yumaloqlash” buyrug‘i yuklanadi. Muloqotlar darchasidagi so‘rovga “R” harfini terib kiritiladi va “Enter” bilan qayd etiladi;


2. Ekrandagi ko‘pburchakning biror tomoniga kvadrat nishoncha “Sichqon” yordamida keltirib yuklanadi. Shunda ko‘pburchakning burchaklari avval kiritilgan radiusda (20mm) yumaloqlanib qoladi (43-rasm).




43-rasm

Agar yumaloqlash radiusining qiymatini o‘zgartirish zarur bo‘lsa, yuqoridaqidek avval “Скругление”-“Yumaloqlash” buyrug‘i yuklanib, yangi radius qiymati kiritiladi. So‘ngra yumaloqlash amallari bu buyruqni qayta yuklab bajariladi.

Yuqorida o‘tilgan chizma chizish buyruqlaridan foydalanib, 44-rasmida tasvirlangan 5 burchakning burchaklari yumaloqlansin va 45-rasmida keltirilgan tutashmaning chizmasi bajarilsin. Bunda 5 burchak radiusi 100 mm bo‘lgan aylanaga ichki qilib yasalsin.



44-rasm



45-rasm

Tayanch iboralar:

Ko‘pburchak chizish Aylana chizish Tutashmalar yasash

Nazorat savollari:

1. Ko‘pburchak chizish buyrug‘idan foydalanish algoritmini ramziy belgilar yordamida yozib chiqing.
2. Aylana chizish algoritmini qisqartirilgan holda ramziy belgilardan foydalanib tuzib chiqing.
3. Aylana chizish buyrug‘idagi qaysi qo‘sishimcha buyruqdan foydalanib tutashmalar yasaladi.

V-MASHG'ULOT

Mavzu: Chizmani taxrir qilishning asosiy buyruqlari va ulardan foydalanish algoritmlari

Adabiyot:

1. www.info-baz.narod.ru, III-боб “Редактирование геометрии”, 2-часть.
2. А. Федоренков, А.Кимаев, AutoCAD 2002: “Практический курс”, Москва, “ДЕСС СОМ”, 2002г., 240 - 274 стр.
3. Б. Барчард va boshqalar. “Внутренний мир AutoCAD” (Перевод с англ.) Киев: Диа Софт 2000. III-раздел.

5.1. “Стреть”-“O'chirish” buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

Kompyuterda grafik axborotlarni bajarishdagi hatoliklarni “Стреть”-“O'chirish” buyrug'idan foydalanib tuzatiladi. “Стреть”-“O'chirish” buyrug'i quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. “Стреть”-“O'chirish” buyrug'i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasidada “Ob'yeckni ko'rsating” so'rovi paydo bo'ladi. Bu so'rovga o'chirilishi kerak bo'lgan chiziqlar “Sichqon” yordamida alohida-alohida kvadrat nishoncha bilan yoki bir yo'la to'g'ri to'rtburchak ochib ajratiladi.

2. Ajratilgan ortiqcha chiziqlar “Enter” bilan qayd etilib ekranдан yo'qotiladi-o'chiriladi.

5.2. “Копировать”-“Nusxa olish buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

Kompyuterda grafik axborotlarni bajarish jarayonida ularning ayrim elementlaridan nusxa olib, boshqa joyga qo'yishda “Копировать” - “Nusxa olish” buyrug'idan foydalaniladi. Bu buyruq quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. “Копировать” - “Nusxa olish” buyrug'i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Muloqotlar darchasidada quyidagi so'rov paydo bo'ladi: “Ob'yeckni ko'rsating”. Bu so'rovga nusxasi olinishi kerak bo'lgan ob'yeck-chiziqlar “Sichqon” yordamida alohida-alohida kvadrat nishoncha bilan yoki bir yo'la to'g'ri to'rtburchak ochib ajratiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

2. Shunda muloqotlar darchasidada navbatdagi “Tayanch nuqtasini ko'rsating yoki [Multiple]:” so'rovi paydo bo'ladi. Agar ob'yeckning nusxasi tasvirning bitta joyiga olib borib qo'yiladigan bo'lsa, bu so'rovga uni biror nuqtasi ko'rsatiladi. Agar ob'yeckning nusxasi tasvirning bir nechta joyiga olib borib qo'yiladigan bo'lsa, bu so'rovga ko'p nusxa olish qo'shimcha buyrug'i - “Multiple”ning birinchi harfi terib kiritiladi.

3. Ob'ektning “Sichqon” yordamida bog'langan tayanch nuqtasi chizmaning kerakli joyiga keltirilib, uni chap tugmasi bilan qayd etiladi. Natijada nusxasi ko'chirilib olingan ob'ekt yangi joyda tasvirlanib qoladi. Agar ko'p nusxa olish qo'shimcha

buyrug'i yuklangan bo'lsa, ob'ektni tayanch nuqtasi chizmaning kerakli joylariga birin-ketin keltirilib, qayd etiladi va uning ko'plab tasvirlari yasaladi.

5.3. "Массив"-“Chizmada bir xil elementlarni ko‘plab tasvirlash” buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

"Массив"-“Chizmada bir xil elementlarni ko‘plab tasvirlash” buyrug‘idan foydalanib chizmaning biror elementini-“Объект”ini to‘g‘ri to‘rtburchak sohaga qatorlar va ustunlar ko‘rinishida yoki aylana bo‘ylab berilgan to‘ldirish burchagida uning tasvirini teng burchak ostida ko‘plab yashash mumkin. “Объект”ni to‘g‘ri to‘rtburchak sohaga qatorlar va ustunlar ko‘rinishida ko‘paytirib tasvirlashga “R”-“To‘g‘ri to‘rtburchak” массив va uni aylana bo‘ylab teng burchak ostida ko‘plab tasvirlashga “P”-“Qutb” массив deb ataladi.

Bu buyruqdan foydalanib ekrandagi biror “Объект”ni R va P массивидаги ko‘paytirilgan tasvirlari quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. “Массив” buyrug'i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Select objects:” - “Ob‘yektni ko‘rsating”. “Объект” kvadrat nishoncha bilan “Sichqon” yordamida ko‘rsatiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

2. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Enter the type of aRRay [R. . . P. . .].:” - “Массив turini kriting”. Massivning R yoki P turi kiritiladi va “Enter” bilan qayd etiladi. Masalan, массивning R turi kiritiladi.

3. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Enter the number of Rows:” - “Qatorlar sonini kriting”. Masalan, u to‘rt qator bo‘lsin, 4 raqami teriladi va “Enter” bilan qayd etib kiritiladi.


4. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Enter the number of columns:” - “Ustunlar sonini kriting”. Masalan u oltita ustundan iborat bo‘lsin, 6 raqami teriladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

5. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Enter the distance between Rows:” - “Qatorlar orasidagi masofani kriting”. Masalan u 25 mm bo‘lsin, bu raqam teriladi va “Enter” bilan qayd etib kiritiladi.

6. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Enter the distance between columns:” - “Ustunlar orasidagi masofani kriting”. Masalan, u ham 25 mm bo‘lsin, bu raqam teriladi va “Enter” bilan qayd etiladi. Natijada to‘g‘ri to‘rtburchakli sohada “Объект”ning ko‘paytirilgan 4 x 6 ta, ya’ ni 24 ta tasviri ekranda paydo bo‘ladi (46-rasm).

Endi, qutb (P) massividan foydalanib biror “Объект”ning ko‘paytirilgan tasvirini yashash algoritmini ko‘rib chiqamiz: “P” массив uchun ham yuqorida keltirilgan “R” массивини bajarish algoritmini I va 2-amallari bir hil bo‘ladi. 2-amaldagi “Массив turini kriting” so‘roviga, массивнинг qutb - “P” туринган.

kiritiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.




46-rasm

7. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Specify center point of aRRay:” - “Массив markazini ko‘rsating”. “Sichqon” yordamida массив markazi ko‘rsatiladi va qayd etiladi.

8. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Enter the number of items in the aRRay:” - “Массивдаги “Объект”лар sonini kriting”. Masalan, uni ko‘paytirilgan tasviri 9 ta bo‘lsin. 9 raqami teriladi va “Enter” bilan qayd etiladi.


9. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Specify the angle to fill:” - “To‘ldirish burchagini kriting”. Masalan, u 360 bo‘lsa, bu raqam teriladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

10. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Rotate aRRay objects:” - “Массивда ob‘yektni burish”. Bu so‘rovga, zaruriyatga ko‘ra “Ha-Yes” - “Ob‘yektni burishga” yoki “Yo‘q-No” - “Ob‘yektni burmas-likka”, Y yoki N harflaridan biri teriladi va “Enter” bilan qayd etiladi. Natijada, qutb massividagi aylana bo‘ylab joylashgan “Объект”ning 9 ta tasviri ekranda paydo bo‘ladi (47-rasm).



47-rasm

AutoCAD 2002 dasturida “Массив” buyrug‘i takomillashgan bo‘lib, uning barcha ko‘rsatkichlari bevosita “Массив” darchasidan foydalanib quyidagicha kiritiladi(48-rasm):



48-rasm

1. ■■ “Massiv” buyrug‘i yuklanadi va ekranda “Массив” darchasi paydo bo‘ladi. Bu darchaning yuqori chap burchagida массив turlari, to‘g‘ri to‘rtburchak soha-“Треугольный массив” va qutb-“Полярный массив” taklif etiladi.

To‘g‘ri to‘rtburchak soha-“Треугольный массив” массиви quyidagi algoritmdan asosida bajariladi:


1. Taklif etilgan массивдан “Треугольный массив”ining tugmasi “Sichqon” yordamida yuklanadi. “Строки”-qatorlar va “Колонки”-ustunlar yacheykalariga qatorlar va ustunlar soni, masalan, 5 va 10 raqamlari terib kiritiladi;

2. “Смещение строки” va “Смещение колонки” yacheykalariga qatorlar va ustunlar orasidagi masofa qiymatlari *mm* larda kiritiladi, masalan, 24 va 30 raqamlari.

3. “Массив” darchasining yuqori chap burchagida joylashgan “Выбор объекта” tugmasi yuklanadi. Ekranda paydo bo‘lgan kvadrat nishoncha bilan tasviri ko‘paytiriladigan element, masalan, diametri 12 *mm* bo‘lgan aylana ichiga chizilgan beshburchak bog‘lanadi va “Enter” bilan qayd etiladi.

4. Shunda ekranda dastlabki “Массив” darchasi paydo bo‘ladi. Uning quyidagi “Просмотр”-dastlabki kuzatish tugmasi yuklanadi. Shunda darcha ekrandan yo‘qolib, berilgan beshburchakning ko‘paytirilgan, ya’ni 50 ta tasviri chizilib qoladi. Kuzatish natijasida bajarilgan массив to‘g‘ri deb topilsa, kichik “Массив” darchasidagi “Принять”-qabul qilmoq tugmasi yuklanib,

to‘g‘ri to‘rtburchak soha-“Треугольный массив”i ekranda bajariladi (49-rasm).




49-rasm

Shunda kichik “Массив” darchasi ham ekrandan yo‘qolib qoladi.

Qutb-“Полярный массив”i quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. Taklif etilgan массивдан “Полярный массив”ining tugmasi “Sichqon” yordamida yuklanadi. “Точка Центра” yacheysigiga qutb markazining X va Y koordinatalari kiritiladi. Agar qutb markazini chizmadan olinsa, X va Y yacheykalarini o‘ng tomonida joylashgan tugma yuklanadi. Shunda darcha yo‘qolib berilgan chizmaga qaytiladi. Chizmada “Sichqon” bilan qutb markazi ko‘rsatiladi va uning ixtiyoriy X va Y koordinatalari aniqlanib yacheykalarga yozilib qoladi (50-shakl).




50-rasm

2. “Общее число пунктов”-tasvirlarning umumiyligi soni yacheysigiga tasvirlar soni, masalan, 9 raqami kiritiladi. “Угол заливки”-to‘ldirish burchagi yacheysigiga, masalan, 360 raqami kiritiladi.

3. “Массив” darchasining yuqori chap burchagida joylashgan “Выбор объекта” tugmasi yuklanadi. Ekranda paydo bo‘lgan kvadrat nishoncha bilan tasviri ko‘paytiriladigan element belgilanadi. Masalan, diametri 12 mm bo‘lgan aylana ichiga chizilgan beshburchak va uni qutb markazi bilan bog‘lovchi chiziq birgalikda ajratiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

4. Shunda ekranda dastlabki “Массив” darchasi paydo bo‘ladi. Uning quyi o‘ng burchagidagi “Просмотр”-dastlabki kuzatish tugmasi yuklanadi. Shunda darcha ekrandan yo‘qolib berilgan beshburchakning ko‘paytirilgan, ya’ ni 9 ta tasviri chizilib qoladi. Bajarilgan qutb массивини kuzatib, bajarilgan массив to‘g‘ri bo‘lsa, kichik “Массив” darchasidagi “Принять”-qabul qilmoq tugmasi yuklanib qutb массиви ekranda bajariladi (51-rasm).



51-rasm


5.4. “Зеркало”-“Ко‘згу” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi

Kompyuterda grafik axborotlarni biror chiziqli nisbatan simmetrik tasvirlarini “Зеркало”-“Ко‘згу” buyrug‘idan foydalanib osongina yasaladi. “Зеркало”-“Ко‘згу” buyrug‘i quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. “Зеркало”-“Ко‘згу” buyrug‘i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Shunda muiloqotlar darchasidada “Ob‘yektni ko‘rsating” so‘rovi paydo bo‘ladi. Bu so‘rovgaga simmetrik tasviri yasalishi kerak bo‘lgan ob‘yekt “Sichqon” yordamida alohida-alohida yoki to‘g‘ri to‘rtburchak ochib bir yo‘la hammasi kvadrat nishoncha bilan ajratiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

2. Shunda muloqotlar darchasidada navbatdagi “Simmetriya o‘qining birinchi nuqtasini kriting” so‘rovi paydo bo‘ladi. Bu so‘rovga, so‘ralgan nuqta kiritilgach, navbatdagi “Simmetriya o‘qining ikkinchi nuqtasini kriting” so‘rovi paydo bo‘ladi.

3. Ikkinchi so‘ralgan nuqta kiritilgach, so‘nggi “Berilgan tasvir yo‘qotilsinmi yoki yo‘qotilmasinmi (Yes/No)” so‘rovi paydo bo‘ladi. Bu qo‘srimcha buyruqlami birortasini bosh harfi kiritiladi. Agar Y harfi kiritilsa, berilgan tasvir chizmadan yo‘qolib, unga simmetrik bo‘lgan tasvir paydo bo‘ladi. Agar N harfi kiritilsa, berilgan tasvir chizmada o‘z o‘mida qolib, unga simmetrik bo‘lgan tasvir paydo bo‘ladi. Kompyuter har doim N harfini taklif qiladi. Shuninig uchun ikkinchi so‘rovga simmetriya o‘qining ikkinchi nuqtasini kiritib, “Enter” tugmasi yuklansa, berilgan chizmaga simmetrik bo‘lgan tasvir, masalan, berilgan ikki aylanaga, simmetriya o‘qi-tasvirdagi to‘g‘ri chiziqqa nisbatan ikkita aylana chizilib qoladi (52-rasm).



52-rasm

5.5. “Сдвиг”-“Surish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi


“Сдвиг”-“Surish” buyrug‘idan foydalanib biror chizmani ekranning bir joyidan ikkinchi joyiga berilgan masofada o‘ziga parallel holda, bir va bir nechta tasvirlarini yasash mumkin. Ekrandagi biror kesmaga 25 mm uzoqlikda o‘ziga parallel bo‘lgan kesmani bir yoki bir nechta tasviri bu buyruqdan foydalanib, quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. “Сдвиг” - “Surish” buyrug‘i “Sichqon” yordamida yuklanadi.


Muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Surish masofasini kriting yoki [Through]:”. So‘ralgan masofa, masalan, 25 mm (mm lar yozilmaydi) terib kiritiladi va “Enter” bilan qayd etiladi. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Surish ob‘yektini tanlang or <exit>:”.

2. Kesma kvadrat nishoncha bilan ajratiladi. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Surish nuqtasini va yo‘nalishini belgilang”.

3. Surish nuqtasi va tomoni cursor yordamida “Sichqon” bilan ko‘rsatiladi va yuklanadi. Natijada kesmadan berilgan masofada unga parallel bo‘lgan kesma



53-rasm



54-rasm

55-rasm

chiziladi. 2 va 3-amallarni qayta-qayta bajarib, oraliqlari berilgan masofaga teng va o‘zaro parallel bo‘lgan bir nechta kesmalarni chizish mumkin. Bunda har gal oxirgi chizilgan kesma surish ob‘yekti sifatida olinadi (53-rasm).

Yuqorida o‘tilgan chizmani taxrir qilish buyruqlaridan foydalanib 54 va 55-shakllarda keltirilgan tasvirlar bajarilsin.

Tayanch iboralar:

Chizmani taxrir qilish	“Стрель” - “O’chirish” buyrug‘i
“Массив” - “Chizmada bir xil elementlarni ko‘plab tasvirlash” buyrug‘i	“Копировать” - “Nusxa olish” buyrug‘i
“Зеркала” - “Ko’zgu” buyrug‘i	“Сдвиг” - “Surish” buyrug‘i

Nazorat savollari:

1. “Стрель” - “O’chirish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmini yozib bering;
2. “Копировать” - “Nusxa olish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmini ayтиб bering;
3. “Массив” - “Chizmada bir xil elementlarni ko‘plab tasvirlash” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmini izohlab bering;

VI – MASHG‘ULOT

Mavzu: Chizmani taxrir qilishning asosiy buyruqlari va ulardan foydalanish algoritmlari

Adabiyot:

1. www.info-baz.narod.ru, III-боб “Редактирование геометрии”, 2-часть.
2. А. Федоренков, А.Кимаев, AutoCAD 2002: “Практический курс”, Москва, “ДЕСС СОМ”, 2002г., 240 – 274 стр.
3. Б. Барчард va boshqalar. “Внутренний мир AutoCAD” (Перевод с англ.) Киев: Диа Софт 2000. III-раздел.

6.1. “Переместить”-“Ko‘chirish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi

“Переместить”-“Ko‘chirish” buyrug‘idan foydalanib ekrandagi biror ob‘yektni-chizmani ekranning bir joyidan ikkinchi joyiga ko‘chiriladi. Bu buyruq quyidagi algoritm asosida bajariladi:


1. ♦ “Переместить”-“Ko‘chirish” buyrug‘i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Muloqotlar darchasidada “Ob`ektni ko‘rsating” so‘rovi paydo bo‘ladi. Unga javoban ob`ektlar kvadrat nishoncha bilan “Sichqon” yordamida alohida-alohida yoki to‘g‘ri to‘rtburchak olib bir yo‘la hammasi ajratiladi va “Enter” bilan qayd etiladi.

2. Shunda muloqotlar darchasidada navbatdagi “Tayanch nuqtasini ko‘rsating” so‘rovi paydo bo‘ladi. Ob`ektning biror nuqtasi, masalan, ekrandagi to‘g‘ri to‘rtburchakning quyi chap burchagi kvadrat nishoncha - cursor bilan yuklanib, “Enter” yordamida qayd etiladi. Chizma cursor yordamida bog‘lanib, “Sichqon” tugmasini bosgan holda yangi joyga ko‘chiriladi. Chizmaning yangi joydagi tasvirini “Sichqon” tugmasini qayta yuklab hosil qilinadi (56-rasm).

6.2. “Повернуть”-“Burish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi

“Повернуть”-“Burish” buyrug‘idan foydalanib ekrandagi biror kesmani yoki chizmani berilgan burchakka burish mumkin. Ekrandagi biror kesmani bu buyruqdan foydalanib, masalan, 25 gradusga burish algoritmi quyidagicha bo‘ladi:

1. ⚡ “Повернуть” buyrug‘i “Sichqon” yordamida yuklanadi va muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Select objects: - Ob‘yektni tanlang”. Ob‘yekti, masalan, gorizontal to‘g‘ri chiziq kvadrat nishoncha bilan tanlanadi va uni avval “Sichqon” bilin ajratiladi, hamda “Enter” bilan




56-rasm

qayd etiladi. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: "Specify base point:" - "Tayanch nuqtasini-burish markazini ko'rsating".

2. Kursor bilan tayanch burish nuqtasi-markazi ko'rsatiladi. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagi so'rov paydo bo'ladi:

"Specify rotation angle or [Reference]:" - "Burish burchagining qiymatini kriting".

3. Burish burchagining qiymati, masalan, 25 gradus (gradus so'zi yoki belgisi kiritilmaydi) teriladi va "Enter" bilan qayd etib kiritiladi. Natijada berilgan gorizontal vaziyatdagi kesma berilgan burchakka, ya' ni 25 gradusga burilib qoladi (57-rasm).



57-rasm

Bunda burchak qiymati musbat ishorali bo'lsa, kesma soat strelkasi yo'nalishiga teskari buriladi. Burchak qiymati manfiy ishorali bo'lsa, kesma soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha buriladi. Agar burish burchaginiq qiymati ixtiyoriy bo'lsa, kesma yoki ob'ekt "Sichqon" yordamida buriladi va qayd etiladi. Natijada kesma ixtiyoriy burchakka burilib qoladi.


6.3. “Масштаб” buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

“Масштаб” buyrug'idan foydalanib, ekrandagi chizmani kattalashtirish yoki kichiklashtirish mumkin. Bu buyruqdan quyidagi algoritm asosida foydalaniladi:

1. □ “Масштаб” buyrug'i “Sichqon” yordamida yuklanadi va muloqotlar darchasida quyidagi so'rov paydo bo'ladi: “Select objects:” - “Ob'yeqtini tanlang”. Ob'yeqt, masalan, to'g'ri to'rtburchak kvadrat nishoncha bilan avval “Sichqon” yordamida ajratiladi, so'ngra “Enter” bilan qayd etiladi. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: “Specify base point:” - “Tayanch nuqtasini ko'rsating”.

2. Kursor bilan tayanch nuqtasi, masalan, misoldagi to'g'ri to'rtburchakning quyi chap burchagi ko'rsatiladi. Shunda muloqotlar darchasida navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: “Масштабни о'lcham qiymatini kriting”.

3. Bu so'rovga масштаб qиymati, masalan, kattalashtirish bo'lsa, birdan katta va kichiklashtirish bo'lsa, birdan kichik qiyamat teriladi va “Enter” bilan qayd etib kiritiladi. Natijada berilgan to'g'ri to'rtburchakning kattalashgan yoki kichiklashgan tasviri hosil bo'ladi. Chizmada to'g'ri to'rtburchak ikki marta kattalashtirib tasvirlangan (58-rasm).



58-rasm


6.4. “Удлинить”-“Uzaytirish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi

Chizmadagi biror to‘g‘ri chiziqni yoki aylana yoyini uzaytirish, “Удлинить”-“Uzaytirish” buyrug‘i yordamida amalga oshiriladi. Ekranda tasvirlangan kesma quyidagi algoritm asosida uzaytiriladi:

1. “Удлинить”-“Uzaytirish” buyrug‘i “Sichqon” bilan yuklanadi va muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Select an object or [DELta/Percent/Total/DYnamic]:” - “Ob‘yektni tanlang”. Bu so‘rovga “R” protsent so‘zining bosh harfini terib, “Enter” bilan qayd etiladi. Shunda navbatdagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Uzaytirish qiymatini protsentlarda kriting”.

2. Bu so‘rovga 100 foyizdan katta bo‘lgan protsent qiymati masalan, 200, teriladi va “Enter” bilan qayd etib kiritiladi. Shunda muloqotlar darchasidada navbatdagi “Ob‘yektni va uzaytirish yo‘nalishini ko‘rsating” so‘rovi paydo bo‘ladi.

3. Bu so‘rovga to‘g‘ri chiziq yoki aylana yoyining uzaytirilishi kerak bo‘lgan uchi, “Sichqon” yordamida kvadrat nishoncha bilan yuklanadi. Natijada berilgan to‘g‘ri chiziq yoki aylana yoyi kiritilgan foyiz qiymatiga uzayib qoladi (59-rasm).



59-rasm

Shunda muloqotlar darchasidada navbatdagi “Ob‘yektni va uzaytirish yo‘nalishini ko‘rsating” so‘rovi paydo bo‘ladi. Bu so‘rovga avvaldagidek, kesmaning uchini kvadrat nishoncha bilan qayd etib, uni yana ham uzaytiriladi. Bunday amallarni qayta-qayta bajarib, to‘g‘ri chiziqni yoki aylana yoyini hoxlagan uzunlikka uzaytirish mumkin.


6.5. “Фаска” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi

Ekrandagi chizmalarda burchaklarning faskalari “Фаска” buyrug‘idan foydalanib bajariladi. Masalan, to‘g‘ri to‘rtburchakni uchlarini bir tomonining o‘lchami 10 *mm* va ikkinchi tomonining o‘lchami 15 *mm* bo‘lgan faskasini quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. “Фаска” buyrug‘i “Sichqon” yordamida yuklanadi. Shunda muloqotlar darchasidada ikki qatorli quyidagi so‘rovlar paydo bo‘ladi: birinchi qatorida faska buyrug‘iga avval kiritib qo‘yilgan uning ko‘rsatkichlari, ya’ ni “Trim” holatdami, faskani birinchi tomonining o‘lchami 5, faskani ikkinchi tomonining o‘lchami 5” va ikkinchi qatorida “Birinchi to‘g‘ri chiziqni ko‘rsating yoki [faska tomonlarining o‘lchamlarini kriting]:”.

2. Bu so‘rovga o‘lcham so‘zining bosh harfi “D” terib, “Enter” bilan qayd etib kiritiladi. Shunda muloqotlar darchasidada navbatdagi “Фаскани birinchi tomonining o‘lchami kiritilsin” so‘rovi paydo bo‘ladi. Bu so‘rovga, masalan, uning birinchi tomoni 10 mm bo‘lsa, 10 raqamini terib, “Enter” bilan qayd etib kiritiladi. Shunda muloqotlar darchasida quyidagi “Фаскани ikkinchi tomonining o‘lchami kiritilsin” so‘rov paydo bo‘ladi. Uning ikkinchi tomoni 15 mm bo‘lsa, 15 raqamini terib, “Enter” bilan qayd etib kiritiladi. Shunda kompyuter “Фаска” buyrug‘idan chiqib ketadi. Shunda kompyuter odatdagidek, yangi buyruq so‘raydi.

4. Shuning uchun “Фаска” buyrug‘iga qayta ikkinchi marotaba kiriladi. Muloqotlar darchasidada paydo bo‘lgan ikki qatorli “Trim holatdami, faskani birinchi tomonining o‘lchami 10, faskani ikkinchi tomonining o‘lchami 15” va “Birinchi to‘g‘ri chiziqni ko‘rsating yoki [faska tomonlarining o‘lchamlarini kriting]:” so‘roviga, to‘g‘ri to‘rtburchakning biror tomoni “Sichqon” yordamida kvadrat nishoncha bilan qayd etiladi. Shunda muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Иккинчи то‘г‘ри чизиқни көрсатинг:”. So‘ralgan tomoni kvadrat nishoncha bilan ko‘rsatilgach, to‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari ko‘rsatilgan burchagini faskasi olinib qoladi (60-rasm).



60-rasm


6.6. “Разорвать”-“Uzish” buyrug‘i va undan foydalanish algoritmi

Chizmadagi biror to‘g‘ri chiziqni yoki aylana yoyini uzish, “Разорвать”-“Uzish” buyrug‘idan foydalanib, amalga oshiriladi. Ekranda tasvirlangan to‘g‘ri

to'rtburchakning yuqori tomoni quyidagi algoritm asosida uziladi:


1. ⌘ “Разорвать” – “Uzish” buyrug'i “Sichqon” yordamida yuklanadi va muloqotlar darchasida quyidagi so'rov paydo bo'ladi: “Ob'yecktning birinchi uzilish nuqtasini ko'rsating”. Bu so'rovga ob'yecktning-to'g'ri to'rtburchakning biror tomonini uzilish joyining birinchi nuqtasi kvadrat nishoncha bilan ko'rsatiladi. Shunda navbatdagi so'rov paydo bo'ladi: “Ob'yecktning ikkinchi uzilish nuqtasini ko'rsating».

2. Bu so'rovga “Sichqon” yordamida kvadrat nishoncha bilan ob'yecktning ikkinchi uzilish nuqtasi ko'rsatiladi. Natijada to'g'ri to'rtburchakning nuqtalarini ko'rsatilgan tomoni, bu nuqtalar oralig'ida uzilib qoladi (61-rasm).




61-rasm

Yuqorida o'tilgan materiallar asosida 62 va 63-shakllarda keltirilgan tasvirlar ekranda bajarilsin.



62-rasm



63-rasm

Tayanch iboralar:

“Переместить” - “Ko’chirish” buyrug’i
 “Повернуть” - “Burish” buyrug’i
 “Масштаб” - buyrug’i
 “Удлинить” - “Uzaytirish” buyrug’i
 “Фаска” buyrug’i
 “Разорвать” - “Uzish” buyrug’i

Nazorat savollari:

1. “Переместить” - “Ko’chirish” buyrug’i va undan foydalanish algoritmini yozib bering;
2. “Повернут” - “Burish” buyrug’i va undan foydalanish algoritmda qanday ko’rsatkichlar kompyuterga kiritiladi;
3. “Масштаб” buyrug’i va undan foydalanish algoritmini aytib bering;
4. Qanday qilib “Удлинить” - “Uzaytirish” buyrug’i va undan foydalanish algoritmi asosida kesmaning uzunligi ikki barobarga uzaytiriladi;
5. Tomonlari bir yoki ikki xil o’lchamli burchak faskalarini “Фаска” buyrug’idan foydalanib algoritmini tuzib bering;
6. Kesmani yoki biror chiziqni “Разорвать” - “Uzish” buyrug’idan foydalanib uzish algoritmini aytib bering.

VII-MASHG'ULOT

Mavzu: Kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash. Grafik axborotlarni chizmalarni xotiraga saqlash

Adabiyot:


1. www.info-baz.narod.ru, III-боб “Редактирование геометрии”, 4-часть.
2. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: “Практический курс”, Москва, “ДЕСС СОМ”, 2002г., 282 - 284 стр.
3. Б. Барчард ва boshqalar, “Внутренний мир AutoCAD” (Перевод с англ.) Киев: Диа Софт 2000. III-раздел.

7.1. Kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash buyrug'i va undan foydalanish algoritmi

Kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash buyrug'idan foydalanib chizmadagi biror ob'ektning yoki konturning ichki sohasi shtrixlanadi. AutoCAD dasturlari kesim va qirqim, aylana va ko'pburchaklarning yuzalarini ob'ekt deb qabul qiladi. Ob'ektlarning o'zaro kesishuvidan hosil bo'lgan berk sohani esa, kontur deb qabul qiladi.

Bu buyruqdan foydalanib ekrandagi biror ob'ektni yoki konturni ichki berk sohasi quyidagi algoritm asosida shtrixlanadi:

1. “Штриховка” buyrug'i “Sichqon” yordamida yukланади, shunda ekranda muloqotlar darchasida “Granitsa shtrixovki” paydo bo'ladi (64-shakl).




64-rasm

Undagi “Быстрый” вкладкasi (uning o‘zi yuklangan holda ham bo‘lishi mumkin) yuklanib, “Заливка” yacheysidagi tugma yuklanadi. Undan kerakli shtrixlash namunasi “Sichqon” yordamida topiladi va yuklanadi. Tanlangan shtrixlash “Образец” - namuna yacheysida kuzatish mumkin. Darchaning o‘ng tomonidagi “Выбор точки” yoki “Выбор объектов” tugmasi yuklanadi. Agar konturning ichi shtrixlansa, “Выбор точки” tugmasi, agar ob‘yektning ichki sohasi shtrixlansa, “Выбор объектов” tugmasi “Sichqon” yordamida yuklanadi. Agar “Выбор точки” tugmasi yuklansa, darcha yo‘qolib ekranda chizma va muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Select internal point: - ichki nuqtasini ko‘rsating”, ya‘ni konturning ichki sohasida biror nuqta tanlashni so‘raydi. Agar “Выбор объектов” tugmasi yuklansa, darcha yo‘qolib ekranda chizma va muloqotlar darchasida quyidagi so‘rov paydo bo‘ladi: “Ob‘yektni ko‘rsating”, ya‘ni ob‘yektning chegaralovchi barcha chiziqlarini belgilab chiqishni so‘raydi.

2. Kvadrat nishoncha bilan “Sichqon” yordamida ob‘yektning chegaralovchi chiziqlari yoki konturning biror ichki soha nuqtasi yuklanadi va “Enter” bilan qayd etiladi.

3. Shunda yana dastlabki darcha paydo bo‘ladi va undagi “Просмотр” tugmasi “Sichqon” yordamida yuklanadi. Natijada oldindan ko‘rib chiqish



uchun ekrandagi ob'yeqtning tasviri shtrixlangan holda paydo bo'ladi. Agar shtrixlash tasviri talabga javob bermasa, "Sichqon" yoki "Enter" tugmasi yuklanadi va yana ekranda darcha paydo bo'ladi. Undagi "Угол" va "Масштаб" yacheysidagi burchak va shtrixlash chiziqlari orasidagi o'chammlar qiymati kerakli qiymatlarga o'zgartiriladi. Yana bir bor darchadagi "Просмотр" tugmasi "Sichqon" yordamida yuklanib, shtrixlash tasviri qayta ko'rib chiqiladi. Agar shtrixlash tasviri talabga javob sera, "Sichqon" yoki "Enter" tugmasini yuklab darchaga qaytiladi (65-shakl).

4. Darchadagi "OK" tugmasini "Sichqon" yordamida yuklab, ekranda berilgan ob'yeqt yoki konturning shtrixlanishi bajariladi.

7.2. Grafik axborotlarni-chizmalarni xotiraga saqlash tartibi, haxsiy papka yaratish va fayllarni xotirada saqlash

Grafik axborotlarni-chizmalarni xotiraga saqlash tartibi.

"AutoCAD" da quyidagi xotirada saqlash fayllari mavjud:

- dwg - "AutoCAD"ning standart fayli;
- dwt-shablonlar (burchak shtampli asosiy formatlar) fayli;
- dwx-offise, Adobi va COREL paketlar dasturiga joylash fayli
- dwg - "AutoCAD"ning standart faylidan foydalanib grafik axborotlar xotiraga kiritiladi. Bunda fayl nomini o'zimiz nomlaymiz, fayllarni ramziy belgisi 256 tagacha bo'lishi mumkin.
 - dwg - kengaytmani kompyutering o'zi beradi.
 - dwt-shablonlar (burchak shtampli asosiy formatlar) faylidan foydalanib yangi ishlab chiqilgan shablonlar xotiraga kiritiladi.
- dwx-offise, Adobi va COREL paketlar dasturiga joylash faylidan foydalanib, "AutoCAD"dagi grafik axborotlarni offise, Adobi va COREL paketlariga joylab va ularda ochish mumkin.


Ma'lumki, kompyuterga kiritilgan u yoki bu axborotlar disketlarning ma'lum qismida-faylida joylashgan bo'lib, ular xotirada antiqa nom bilan saqlanadi. Kompyuterda fayllar juda ko'p bo'lganligi uchun ularni xotiradan chaqirib olishni osonlashtirish kerak bo'ladi. Shu maqsadda fayllar sohalarga yaqin bo'lgan yoki shaxsiy, yoki maxsus nomli papkada, masalan, guruh talabalarining chizmalari, Shu guruh nomi bilan atalgan papkada xotirada saqlanadi.

Yangi yoki shaxsiy papka quyidagi algoritm asosida yaratiladi:

1. Menyular panelidan "Файл" menyusini "Sichqon" yordamida yuklanadi va undagi "Сохранить как" buyrug'iga kirladi. Shunda ekranda hujjatlarni saqlash "Сохранение документа" darchasi paydo bo'ladi. Undagi "Папка" yacheysiga "Мои документы" papkasi qo'yiladi.

Yangi papka ochish - "Создать папку" tugmasi "Sichqon" yordamida yuklanadi. Bu tugma "Папка" yacheysigasi qatorida undan o'ng tomonda joylashgan bo'ladi.

Shunda ekranda hujatlarni saqlash darchasini ustida “Создание папки”-darchasi paydo bo‘ladi. Undagi “Imya” yacheykasiga yangi papkaning nomi, masalan, 10-11-02 guruhining nomi kiritiladi va “OK” tugmasi “Sichqon” yordamida yuklanib yangi papka yaratiladi. Bu yangi ochilgan papka “Мои документы” papkasida joylashib qoladi (66-rasm).




66-rasm

Yangi papkada fayllar quyidagi algoritm asosida xotiraga kiritiladi:


1. Menyular panelidan “Файл” menyusiga “Sichqon” yordamida yuklanadi va undagi “Сохранить как” buyrug‘iga kiriladi. Shunda ekranda hujatlarni saqlash darchasi “Сохранение документа” paydo bo‘ladi. Undagi “Папка” yacheykasiga “Мои документы” papkasidagi yangi ochilgan papka, ya’ni guruh nomi bilan nomlangan papka qo‘yiladi.

2. Darchadagi “Имя файла” yacheykasiga fayl nomini, masalan, “Alieva Barno”, ya’ni talabanining familiyasi va ismi terib kiritiladi va “Сохранить” tugmasi “Sichqon” yordamida yoki “Enter” tugmasi yuklanadi. Natijada ekrandagi chizma fayli yangi papkada xotiraga yozilib qoladi (67-rasm).



67-rasm

Barcha o'tilgan materiallar asosida 68-shaklda keltirilgan tasvirning ekranagi chizmasi bajarilsin.



68-rasm
Tayanch iboralar:

Kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash buyrug'i
Shtrixlash ob'ekti, shtrixlash konturi
Grafik axborotlarni-chizmalarini xotiraga saqlash
Xotiradan chaqirish
Fayl
Shaxsiy papka

Nazorat savollari:

1. Kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash buyrug'i yuklangach qanday amallar bajariladi;
2. "Просмотр" tugmasi qanday vazifani bajaradi.
3. Kesim va qirqim yuzalarini shtrixlash chiziqlari orasidagi masofa qanday qilib o'zgartiriladi.
4. Shtrixlash chiziqlarini gorizontal chiziqqa nisbatan og'ish burchagi qanday qilib o'zgartiriladi.
5. AutoCAD dasturlarida shtrixlash ob'ekti va konturi deb qanday berk yuzalarga aytildi.
6. Grafik axborotlarni xotiraga qanday saqlanadi. Shaxsiy papka qanday yaratiladi.
7. Файл deb nimaga aytildi.
8. Shaxsiy papka nima uchun yaratiladi.

VIII-MASHG'ULOT

Mavzu: Grafik axborotlarga o'lcham qo'yish buyruqlari

Adabiyot:

1. www.info-baz.narod.ru, III-раздел “Примитивы”, 4-часть.
2. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: “Практический курс”, Москва, “ДЕСС СОМ”, 2002г., 240 – 274 стр.


3. Б. Барчард va boshqalar. “Внутренний мир AutoCAD” (Перевод с англ.) Киев: Диа Софт 2000. III-раздел.

“Размеры”-“О’лчамлар” buyrug‘idan foydalanib geometrik figuralar, detallar va buyumlarning kerakli o’lchamlari chizmada qo’yiladi. Buning uchun avval kerakli ko’rsatkichlarning o’lchamlari kompyuterga kiritiladi, ya’ni o’lcham qo’yishning tayyorgarlik ko’rish bosqichi bajariladi.

8.1. “Размеры”-“О’лчамлар” qo’yishga tayyorgarlik ko’rish tartibi


“Размеры”-“О’лчамлар” qo’yishga tayyorgarlik ko’rish bosqichi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. “Sichqon” yordamida menyular panelidan “Формат” yoki “Размеры” menyusi yuklanib, undagi tegishlichcha “Размерный стили...” yoki “Стил...” buyrug‘iga kirladi. Shunda ekranda “Менеджер Стиля измерения” darchasi paydo bo’ladi (69-rasm).



69-rasm

2. Bu darchadagi o'ng tomonda joylashgan buyruqlar orasidan "Изменить" tugmasi yuklanadi. Ekranda "Изменить Стиль измерения: ISO-25" darchasi paydo bo'ladi (70-rasm).




70-rasm

Avval undagi "Линии и Стрелки" vkladka-qo'yilmasi yuklanadi va "Промежуток до линии", "Смещение от начала" va "Размер Стрелки" yacheykalariga tegishlicha, chiqarish chizig'ini o'lcham chizig'idan chiqib turish uzunligi, chiqarish chizig'i bilan kontur chiziq oralig'i va strelka o'lchamlari chizmani katta-kichikligiga muvofiq tanlab kiritiladi. Agar bu qiymatlar tegishlicha 1.25, 0 va 7 bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'ngra bu darchadagi «Текст» vkladka-кўйилмаси юкланиб, «Высота Текста» va «Смещение от мерной Линии» yacheykalariga, matndagi shrift balandligi va harf, hamda raqamlar bilan o'lcham chiziqlari orasidagi masofalar kiritiladi. Masalan, bu qiymatlar tegishlicha 7 va 3 yoki 4 bo'lsin. Правывание текста - matnni tekislashdagi "Standart ISO" tugmasi yuklanib, "OK" tugmasi yuklanadi (71-rasm).


Shunda ekranda, dastlabki "Менеджер Стиля измерения" darchasi paydo bo'ladi va undagi "Закрыть" tugmasi yuklanib chizmaga qaytiladi:

3. O'lcham qiymatlarini va chizmadagi yozuvlarni DavST (GOST)ga muvofiq yozilishi uchun menyular qatoridagi "Формат" menusiga kiritiladi va undagi "Стиль Текста" buyrug'i yuklanadi. Shunda ekranda "Стиль Текста" darchasi paydo bo'ladi (72-rasm). Undagi "Фактор ширины" va "Угол наклона" yacheykalariga harf va raqamlar enining koefitsienti va



71-rasm

ularni qatorlar asosiga og‘ish burchagi, vertikal chiziqqa nisbatan kiritiladi. Agar bu qiymatlar tegishlicha 0.6 va 15 bo‘lsa, yozuvlar 75° ga og‘gan holda yozilish holatiga o‘tib qoladi.



72-rasm

Bu holatni bevosita “Предварительный просмотр – “Oldindan ko‘rib kuzatish” yacheykasida kuzatilib, “Стиль Текста” darchasi yopiladi va o‘lchamlar qo‘yishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi yakunlanadi. So‘ngra berilgan chizmaga qaytib o‘lchamlar qo‘yishga kirishiladi.

8.2. “Размеры”-“О‘лчамлар” qo‘yish buyrug‘i va uning algoritmi

Ekranning o‘ng tomonida joylashgan o‘lcham qo‘yish asboblari panelidan foydalanib chizmada tasvirlangan geometrik figuralar, detallar va buyumlar elementlarining o‘lchamlari, ularni bog‘lovchi o‘lchamlar va oxirida gabarit o‘lchamlari qo‘yiladi. Barcha o‘lchamlarning chiqarish va o‘lcham chiziqlarini hamda o‘lcham qiymatlarini kompyuterning o‘zi hisoblab chizmaga yozib qo‘yadi. Shuning uchun o‘lchamlarni chizmada ko‘rinimli bo‘lishini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Agar unga erishishni iloji bo‘lmasa, “Изменить Стиль измерения: ISO-25” darchasiga kirib, undagi “Подгонка” qo‘yilma-“вкладка”sini yuklab, o‘lchamlarni chizmadagi joylarini o‘zgartirib, ularni qo‘yilishini ko‘rinimli bo‘lishiga erishiladi.

Chizmada chiziqli o‘lchamlar, o‘lchamlar panelidagi tugmani, qiya joylashgan elementlarning o‘lchamlari esa, tugmani yuklab qo‘yiladi.


Chizmada biror nuqtaning X yoki Y koordinatalarini ko‘rsatish lozim bo‘lsa, tugmani yuklab qo‘yiladi.

Aylana yoyining radiusi va aylana diametri tegishlicha, tugmalardan, hamda burchak o‘lchamlar, tugmadan foydalanib qo‘yiladi. Agar biror sabab bilan o‘lcham ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish kerak bo‘lsa, o‘lchamlar panelidagi oxirgi tugmasini yuklab, ekranga dastlabki “Менеджер Стиля измерения” darchasini chaqirish ham mumkin.

Agar biror o‘lcham qiymatini yaxlitlab olish yoki unga qo‘srimcha yozuv kiritish zarur bo‘lsa, menyular qatoridan “Изменить” menyusini yuklanib, uni darchasidan “Текст” qo‘srimcha buyruq yuklanadi. Shunda ekranda paydo bo‘lgan kvadrat nishoncha bilan o‘zgartirish kiritiladigan o‘lcham bog‘lanadi. Ekranda paydo bo‘lgan “Редактор мультилинейного текста” darchasiga kerakli o‘zgartirish, masalan $\Phi 100,51$ yozuvini, $\Phi 100$ yoki $\Phi 101$ yozuviga, yoki $\Phi 10$ yozuvini “4 теш. $\Phi 10$ ” yozuviga o‘zgartiriladi. Darchadagi “OK” yoki “Enter” tugmasini yuklab, qo‘yilgan o‘lcham taxrir qilinadi.

AutoCAD 2002 dasturida “Редактор мультилинейного текста” darchasini quyidagi ketma-ketlikda (Модификация/Объект/Текст/Редактирование) ekranga chaqiriladi.

O'lcham qo'yish buyrug'idan foydalanib quyidagi 73-rasmdagi vazifa bajarilsin va uning o'lchamlari qo'yilsin.



73-rasm
Tayanch iboralar:

O'lcham qo'yish buyruqlari
O'lchamlar qo'yishga tayyorgarlik ko'rish
O'lchamlar qo'yish va uning algoritmi
Chiziqli o'lcham
Radius o'lcham
Diametr o'lcham

Nazorat savollari:

1. O'lchamlar qo'yishga tayyorgarlik ko'rish tartibini ayтиб беринг;
2. O'lchamlar qo'yishning qaysи buyruqlaridan foydalanib gorizontal, vertikal va og'ma konturlarga o'lchamlar qo'yiladi;
3. O'lchamlar qo'yishning qaysи buyruqlaridan foydalanib aylanaga va uning yoyiga o'lchamlar qo'yiladi;
4. O'lchamdagи yozuvlarni qanday qilib 75 gradusga og'dirib yoziladi;
5. O'lchamdagи yozuvlarni balandligi qanday qilib o'zgartiriladi;
6. O'lchamdagи yozuvlarni qanday qilib taxrir qilinadi, ya'ni o'lcham qiymatlari qanday qilib yaxlitlanadi yoki unga qo'shimcha yozuvlar kiritiladi.

Kompyuter grafikasidan birinchi joriy nazorat ishini (1-ЖБ) bajarish (Nazorat ishi o'quv semestrining to'qqizinchi xafatasida kunning ikkinchi yarmida o'tkaziladi)

Nazorat rejasi:

1. Birinchi joriy **baholash** ishining maqsadi va mazmuni;

2. Birinchi joriy **baholash** ishini bajarish uchun tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar;

3. Birinchi joriy **baholash** ishini taxt qilish. Uni xotirada saqlash va chizma qog'oziga chiqarish.

1-ЖБ.1. Birinchi **joriy baholash** ishida tutashmaning chizmasi bajariladi.

Birinchi **joriy baholashda** talabalarning kompyuter grafikasidan olgan bilim va o'rgangan amaliy ko'nikmalari sinaladi. Birinchi **joriy baholashda** ularning amaliy malakalari ham ortadi.

Talabalarga o'qituvchilar tomonidan vazifa qilib, ilovani birinchi laboratoriya ishida keltirilgan nazorat ishlari uchun vazifalar variantlaridan tanlab beriladi. Buning uchun ular o'z vazifalarini daftarlariغا ko'chirib oладилар.

1-ЖБ.2. Tutashma bilan tanishib, uning chizmasini quyidagi ketma-ketlikda bajarish tavsiya etiladi, lekin buni har bir talaba o'zi istagan va maqbul deb o'ylagan reja asosida, ya'ni ijodiy izlanishda bo'lib bajarishlari ham mumkin:

1. Tekis konturning simmetriya o'qlari va markaz chiziqlar "Отрезок"- "Кесма" buyrug'idan foydalanib o'tkaziladi. Markaz chiziqlarni o'tkazishda ular orasidagi masofani "Surish" - "Сдвиг" buyrug'idan yoki kesma uzunligini tezkor kiritish usulidan foydalanib kiritiladi.

Tekis kontur chizmasida berilgan chiziqlar, ya'ni to'g'ri chiziq va aylanalar chizib olinadi.

Tekis kontur chizmasidagi tutashma elementi-aylana yoyi to'liq aylana ko'rinishida chizish panelidagi yoki "Черчение" menyusidagi "Круг"- "Айлана" buyrug'idan foydalanib chizib olinadi.

Bunday amallarni bajarish asosida chizmadagi barcha tutashmalar bajariladi. Ulardagi ortiqcha aylana yoylarini chizmadan yo'qotiladi.

So'ngra berilgan o'lchamlar, ekranda bajarilgan chizmaga qo'yib chiqiladi.

1-ЖБ.3. Yuqorida bosqichlarda bajarilgan "Tekis kontur" chizmasi taxt qilinadi.

Tayyor bo'lgan "Tekis kontur" chizmasi chop etishga tayyor holda hotirada saqlanadi va bir nushada qog'ozga ko'chirib olinadi.

IX-MASHG'ULOT

Mavzu: Kompyuter grafikasidan laboratoriya ishlarini bajarishga oid tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar

Adabiyot:

1. www.info-baz.narod.ru, III-раздел “Редактирование геометрии”, 2-часть.
2. А. Федоренков, А. Кимаев, AutoCAD 2002: “Практический курс”, Москва, “ДЕСС СОМ”, 2002г., 183 – 213 стр.
3. Б. Барчард va boshqalar. “Внутренний мир AutoCAD” (Перевод с англ.) Киев: Диа Софт 2000. III-раздел.

9.1. Laboratoriya ishlarini joylashtirish uchun A4 yoki A3 formatlarni bajarishga oid tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar

Bu mashg'ulotda avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar asosida laboratoriya ishlarini joylashtirish uchun A4 yoki A3 formatlarni asosiy yozuvi bilan bajariladi. A4 formatni va asosiy yozuv kataklarini chizishni va ulardagi yozuvlarni bajarishni ko'rib chiqamiz.

A4 formatni ekranda chizish uchun “Kesma” buyrug'i yuklanadi. Kursorni ekranning pastki yoki yuqori chap burchagiga olib kelib, uning birinchi chap burchaginining o'rni belgilanadi.


Shunda muloqatlar darchasida, kesmani ikkinchi uchining koordinatalarini kiritish so'raladi. Kesma uzunligini kiritishning tezkor usulidan foydalanib, kursorni gorizontal chiziq bo'ylab o'ng tomonga suriladi va 210 mm terilib, “Enter” bilan qayd etiladi. Natijada A4 formatning bir tomoni hosil bo'ladi va cursor bu tomonning ikkinchi uchiga kelib qoladi. Kursorni yuqoriga vertikal chiziq bo'ylab suriladi va 297 mm ni klavishalar yordamida teriladi, hamda “Enter” bilan qayd etiladi. Natijada A4 formatni ikkinchi tomoni ekranda chizilib qoladi. Qolgan tomonlarini ham yuqorida uchun “Сдвиг”-“Surish” buyrug'idan foydalaniladi. Buning uchun bu buyruqqa kirib, 5 mm qiymat kiritiladi va A4 formatning pastki, ustki va o'ng tomonlarini ketma-ket kvadrat nishoncha bilan ajratib, kursorni format ichkarisiga surib “Sichqon” bilan qayd etiladi. Natijada ramka chizig'inining pastki, ustki va o'ng tomonlari chiziladi. Uning chap tomonini chizish uchun, uni kvadrat nishoncha bilan ketma-ket to'rt marotaba siljитиb, uni 20 mm o'ng tomonga suriladi. Asosiy yozuvning kataklarini chizish uchun kvadrat nishoncha bilan ketma-ket o'n bir

marotaba siljitim, gorizontal chiziqlari chizib olinadi. So'ngra "Сдвиг" - "Surish" buyrug'iidan yoki kesma uzunligini tezkor kiritish usulidan foydalanib, uning vertikal chiziqlari chizib olinadi. Ortiqcha to'g'ri chiziqlarni va ularning uzunliklarini kesmani ajratib, ekrandan yo'qotiladi yoki uzunliklari qisqartirilib chiqiladi. Natijada asosiy yozuv kataklari DavSTida belgilanganidek chizilib qoladi.

9.2. AutoCAD dasturida yozuvlar bajarish

Asosiy yozuv grafalarini tegishli yozuvlar bilan to'ldiriladi. Kataklardagi yozuvni bajarishda asosiy yozuv kataklarini bir nechtasini kattalishdirib olinadi. AutoCAD dasturida yozuvlar quyidagi algoritm asosida bajariladi:

1. Menyular qatoridan "Рисование" - "Chizish" menyusi yuklanib, undagi "Текст" - "Matn" buyrug'i yuklanadi. Oxirgi buyruqdagi "Однострочный" - "Bir qatorli" qo'shimcha bo'yruq yuklanadi (75-rasm).



75-rasm


Shunda muloqatlar darchasida "Matn yozuvining boshlanish nuqtasini ko'rsating" so'rovi paydo bo'ladi. Yozuvning boshlanish nuqtasi biror kataknchap tomonidan ko'rsatiladi.

2. Shunda muloqatlar darchasidagi navbatdag'i so'rov paydo bo'ladi: "Matndagi harflarning balandligini kriting":. Bu so'rovga **2,5 mm** terib kiritiladi va "Enter" bilan qayd etiladi.

3. Shunda yana navbatdag'i so'rov paydo bo'ladi: "Matn asosini gorizontga nisbatan og'ish burchagini kriting". Bu so'rovga "0", ya' ni gorizontal chiziq

bo'ylab matnni yozilishi kiritiladi. Bu so'rovning ko'rsatkichi ham "Enter" bilan qayd etiladi.

4. Shundan so'ng muloqotlar darchasida "Matnni kriting" so'rovi paydo bo'ladi (76-rasm).




76-rasm

Bu so'rovga javoban kerakli yozuvlar masalan, asosiy yozuv kataklaridan eng pastki chap katagiga 11111 raqamlar yozgan kabi, uning barcha kataklari tegishli yozuvlar bilan to'ldirilib chiqiladi.

Agar yozuvlarni bajarishda xatolikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, ularni "Изменить" - "O'zgartirish" menyusini va undagi "Текст" - "Matn" buyrug'i "Sichqon" yordamida yuklanib, quyidagicha bataraf etiladi:

Bu buyruq yuklangach ekranda "Matnni taxrir qilish" darchasi va kvadrat nishoncha paydo bo'ladi (77-rasm).




77-rasm

Kvadrat nishoncha bilan yuqorida yozilgan 11111 yozuvni ajratiladi, shunda "Matnni taxrir qilish" darchasidagi "Matn" yacheyskasida bu yozuv paydo bo'ladi.

Bu yozuvni "Backspace" tugmasi yordamida o'chiriladi va uning o'miga to'g'ri yozuv masalan, "Chizdi" yozushi terilib, "OK" yoki "Enter" tugmasi bilan qayd etiladi. Shunda ekrandan darcha yo'qolib, to'g'ri yozuv paydo bo'ladi. Shu tariqa taxrir qilib noto'g'ri bajarilgan yozuvlar to'g'rilaradi.

